

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**FARG`ONA POLITEXNIKA INSTITUTI**  
**“ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV” FAKULTETI**  
**“IQTISODIYOT” KAFEDRASI**

**“Himoyaga ruxsat etildi”**

Kafedra mudiri

Davlyatova G.

---

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014 yil

**5340100 “IQTISODIYOT” YO`NALISHI BO`YICHA**  
**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Korxonalarning moddiy resurslari holati tahlili va ulardan  
foydalanishni yaxshilash tadbirlari  
 (“Farg`onaazot” ochiq aksiyadorlik jamiyati misolida)**

**Talaba:**

**Asatullayeva Nigora  
Yorqinjon qizi**

**Ilmiy rahbar :**

**Teshaboyeva U.**

**Farg`ona 2014 y.**

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
<b>1-BOB. MODDIY RESURLAR VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI</b>	
1.1. Korxonaning moddiy ashyoviy resurslarining iqtisodiy mohiyati va ularning korxonada faoliyatida tutgan o`rni.....	7
1.2. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalaydigan ko`rsatkichlar tizimi.....	15
1.3. Moddiy resurslardan samarali foydalanishning zarurligi va ahamiyati.....	26
<b>2-BOB. “FARG`ONAAZOT” OAJNING MODDIY RESURLAR BILAN TA`MINLANISHI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.</b>	
2.1 Korxonaning umumiy tavsifi va asosiy hajmiy ko`rsatkichlarining dastlabki tahlili.....	32
2.2. Korxonada moddiy resurslardan foydalanish ko`rsatkichlari tahlili.....	34
2.3. Moddiy resurslar samardorligining korxonada moliyaviy natijalariga ta`sirining tahlili.....	51
<b>3-BOB. KORXONADA MODDIY RESURLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO`NALISHLARI</b>	
3.1. Moddiy resurslardan samarali foydalanishning omillari va imkoniyatlari.....	57
3.2 “Farg`onaazot” OAJ da moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash tadbirlari va ularning iqtisodiy samaradorligi.....	64
<b>XULOSA.....</b>	<b>71</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....</b>	<b>76</b>

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.** O`zbekiston Respublikasi o`z mustaqilligiga erishgandan so`ng o`tgan qisqa tarixiy muddatda dunyoning jadal rivojlanayotgan davlatlar safidan joy oldi. Dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanish ko`rsatkichlarini kuzatib borayotgan xalqaro tashkilotlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bir necha yildan buyon barqaror yuksalishda davom etayotgani, O`zbekiston bu borada katta yutuqlarni qo`lga kiritayotganini e`tirof etmoqdalar.

Jumladan, mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o`shish sur`atlari 2011-yilda 8,3 % ni, 2012-yilda 8,2 % ni, 2013-yilda esa 8 % ni tashkil etdi. Ushbu ko`rsatkich bo`yicha O`zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari safidan joy oldi.

Prezidentimizning 2013-yilda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida so`zlagan ma`ruzasida ta`kidlaganidek, o`tgan yili sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,8 % ga, qishloq xo`jaligi 6,8 % ga, qurilish ishlari 16,6 % ga, xizmatlar hajmi 13,5% ga oshdi.

Ma`lumki, respublikamizda o`tkazib borilayotgan islohotlarning eng muhim vazifalaridan biri milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasini undagi muhim, boshqa tarmoqlar rivojini ta`minlovchi, xalq iste`moli tovarlarini yaratuvchi sohalariga ustuvor ahamiyat berish orqali takomillashtirish bo`lib hisoblanadi. Ana shunday tarmoqlardan biri sanoatdir. Agar sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000-yilda 14,2 % ni, 2010-yilda 24 % ni tashkil etgan bo`lsa, bu ko`rsatkich hozirgi vaqtda 24,2 foizdan ziyodni tashkil etmoqda.<sup>1</sup>

Sanoat tarmoqlari ichida esa kimyo sanoati yetakchi o`rinlardan birini egallaydi. Kimyo sanoati sohasida yangidan yangi ishlab chiqarish korxonalarini bunyod etish, yangi ishchi o`rinlarini yaratish, import hajmini kamaytirib, eksport

---

<sup>1</sup> Prezidentimizning 2013-yilda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida so`zlagan ma`ruzasi //Xalq so`zi, 2014 yil

hajmini oshirish mamlakatimizning bugungi kundagi dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Misol tariqasida Prezidentimiz I.A.Karimovning bir qancha sessiyalardagi nutqlarini, yil yakunlaridagi hisobot bayonotlarini keltirishimiz mumkin. Shu o`rinda Prezidentimizning: «...kimyo sanoatining rivojlanishi ishlab chiqarishni ekologik tozaligini ta`minlagan holda asosan shaxsiy resurslarimizni o`zlashtirishga asoslanishi kerak. Butun kimyo sanoatini, uni texnik qayta ta`minlab, tubdan qayta qurish kerak...»<sup>2</sup> - degan nutqlari mamlakatimizda ishlab chiqarishga, modernizatsiya qilishga talabning qanchalik yuqori ekanligini isboti desak mubolag`a bo`lmaydi.

Mamlakatimizni bozor iqtisodiyotiga o`tish davridagi strategiyalari ichida iqtisodiyotdagi moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Moddiy resurslardan samarali foydalanish masalasi juda muhim bo`lganligidan, bu masala strategiya darajasiga olib chiqilgan. Ushbu masalani ijobiy tarzda hal qilinishi mamlakatimiz iqtisodiy qudratini yanada oshirishga salmoqli hissa qo`shadi.

Turli mulk shaklidagi tashkilotlar o`z faoliyatlarini mustaqil tarzda amalga oshirishlari, ular faoliyatlaridagi mustaqillikni ortishi moddiy resurslardan foydalanish masalasiga turlicha munosabatda bo`lishni yuzaga keltirdi. Korxonalar va tashkilotlar o`z maqsadidan kelib chiqqan holda turli resurslardan foydalanadilar. Mamlakatimiz va viloyatimizdagi moddiy resurslar cheklangandir. Shu bilan birgalikda mamlakat va viloyat aholisining ehtiyojlari har tomonlama ortib bormoqda. Ortib borayotgan bu ehtiyojni to`laroq qondirib borish uchun har bir birlik resursdan ko`proq mahsulot olish va xizmatlar ko`rsatish lozim. Ushbu masala bugungi kunga kelib yanada dolzarb masalalardan biriga aylandi. Sanoat korxonalarida moddiy resurslardan samarali foydalanish bo`yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish, resurslardan foydalanishning samarali yo`nalishlarini taklif qilish iqtisodiyotdagi dolzarb masalalardan eng muhimiga aylandi va hozirgi vaqtda o`z yechimini kutmoqda.

---

<sup>2</sup> Prezidentimizning 2012-yilda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013- yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida so`zlagan ma`ruzasi // Xalq so`zi 2013 yil

**Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishning maqsadi bo`lib, moddiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Bunga ko`ra quyidagi vazifalarni hal qilish belgilanadi:

- moddiy resurslar va ulardan samarali foydalanishning nazariy asoslarini o`rganish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda moddiy resurslarning korxonada faoliyatida tutgan o`rnini yoritib berish;
- moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalaydigan ko`rsatkichlar tizimiga tavsif berish;
- korxonada moddiy resurslardan foydalanish darajasini tahlil qilish va baholash;
- moddiy resurslardan samarali foydalanishning tashkiliy iqtisodiy tadbirlarini tuzish;

**Bitiruv malakaviy ishning obyekt** sifatida “Farg`onaazot” OAJ hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning nazariy va uslubiy asoslarini** O`zbekiston Respublikasining xo`jalik yurituvchi sub`yektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlari, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning iqtisodiyotimizni rivojlantirish, isloh qilish va erkinlashtirishga oid Farmonlari, Qarorlari, asarlari va ko`rsatmalari, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari tashkil etadi.

Ilmiy izlanish jarayonida mavzuga oid xorijiy, shuningdek mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari, O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlaridan va Internet resurslari manbalaridan hamda «Farg`onaazot” OAJ korxonasining faoliyatini aks ettiruvchi statistik ma`lumotlaridan foydalaniladi.

**Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishda korxonalarining moddiy resurslaridan samarali foydalanishning muammo va yechimlari to`g`risida ishlab chiqilgan ilmiy – nazariy g`oya hamda

tadbirlar respublikamiz korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo`llarini aniqlashga yordam beradi.


Ilmiy izlanishlar jarayonida olingan natijalar, kiritilgan tadbirlardan korxonalarining rivojlanish strategiyasi va taktik dasturlarini tuzishni takomillashtirishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ish tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

# 1-BOB. MODDIY RESURLAR VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

## 1.1. Korxonaning moddiy ashyoviy resurslarining iqtisodiy mohiyati va ularning korxonada faoliyatida tutgan o`rni

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida har bir xo`jalik yurituvchi subyekt biror bir mahsulot (ish, xizmat) lar ishlab chiqarishni tashkil qilishi uchun asosan to`rt xil resurs mujassam bo`lmog`i lozim bo`ladi. Bunday resurslar tarkibini quyidagi chizma ko`rinishida tasavvur etish mumkin:




### 1.1.1– rasm. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan resurslar tarkibi

Mazkur resurslar tarkibida bugungi kunda eng asosiylaridan biri moddiy resurslar hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda aytilganidek, moddiy resurslar – ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan barcha moddiy shakllardagi vositalardir.

Moddiy resurslar tarkibiga xom ashyolar, materiallar, mashina – mexanizm, asbob – uskuna, qurilma – inshootlar, binolar va boshqalar kiradi, ular ishlab chiqarish vositalari deb ham yuritiladi. Moddiy resurslar tarkibini taqriban quyidagi chizma shaklida ko`rish mumkin.




### **1.1.2-rasm. Ishlab chiqarishning moddiy resurslari tarkibining chizmasi**

Bu yerda biz moddiy resurslar tarkibiga mehnat sharoitlarini ham kiritdik, sababi iqtisodiyotni erkinlashtirish tamoyiliga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy jarayonlar tarkibida moddiy resurslar (asosiy vositalar va aylanma mablag`lar) bilan birgalikda mehnat sharoitini ham qo`shishni lozim topdik, sababi ular ham ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiladi va korxonaga xuddi moddiy resurslar kabi ma`lum darajada foyda keltiradi.

Ma`lumki moddiy resurslar o`z holicha ishlab chiqarish jarayonida ishtirok eta olmaydilar, bu jarayon moddiy resurslar bilan mehnat resurslarining birikuvi natijasida sodir bo`ladi. Demak, ishlab chiqarish jarayoni yuz berishi uchun barcha resurslar bir – biridan ajralmagan holda ishtirok etadilar.

Bundan ko`rinib turibdiki, iqtisodiy jarayonlarni sodir etish uchun moddiy resurslar bilan birgalikda jonli mehnatning (mehnat resurslari yoki mehnat salohiyati) ham ishtirokini ta`minlash lozim bo`ladi. Shundagina, ishlab chiqarish jarayoni sodir bo`lib, yangi mahsulot yaratilishiga erishish mumkin. Ana shu nuqtai – nazardan olib qaralganda resurslar tarkibining chizma ko`rinishi quyidagicha bo`ladi.



### 1.1.3 – rasm. Ishlab chiqarish resurslari tarkibining chizmasi

Ma`lumki, har qanday ishlab chiqarish jarayonida mehnat buyumlari, mehnat qurollari (mehnat vositalari) va inson mehnati ishtirok etadi. Mehnat buyumlariga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg`i, elektr quvvati, ta`mirlash uchun ehtiyot qismlari va boshqalar, mehnat vositalariga esa mashina va mexanizmlar, asbob – uskunalar, yuk tashuvchi va uzatuvchi vositalar, kompyuter va laboratoriya anjomlari, bino va inshootlar kiradi.

Mehnat buyumlari va vositalarining birgalikda qiymat shaklida ifodalanishi ishlab chiqarish fondlarini tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish jarayonida qatnashish darajasiga ko`ra asosiy vositalar va aylanma mablag`larga ajratiladi. Mehnat qurollari asosiy vositalarni, mehnat buyumlari esa aylanma mablag`larni tashkil etadi.

Asosiy vositalar ishlab chiqarishning muhim omili sifatida qaralib, ular vositasida bevosita mehnat predmetlari va mehnat kuchlari birikuvida mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlar bajariladi va xizmatlar ko`rsatiladi.

Asosiy vositalar deb, ishlab chiqarish siklida bir necha bor qatnashib, o`zining qiymatini yaratilayotgan mahsulotlarga qisman o`tkazuvchi hamda jismoniy shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalariga aytiladi.

Asosiy vositalarni tarkiblashda jahon va respublika hisob belgiloviga muvofiq quyidagi ikki jihat mezon sifatida olinadi. Birinchisi, ularning qiymat ifodasi, ikkinchisi – xizmat muddati.

Asosiy vositalarning qiymat ifodasi uning kam baholi tez eskiruvchi buyumlardan farqlanish chegarasini xarakterlaydi. Bu ifoda O`zbekiston Respublikasi

Moliya Vazirligining 2000 yildagi qarori bilan ish haqi minimumining 50 barobarida qilib belgilangan. Asosiy vositalarning xizmat muddati ularning bir yildan ortiq muddat xizmat etishini xarakterlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining asosiy vositalar bilan ta`minlanish darajasi samaradorlik asosini tashkil etadi. Shu sababli korxonaning asosiy vositalar bilan ta`minlanish darajasini o`rganishda asosan quyidagilarga qaratiladi:

- xo`jalik subyektlarining asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta`minlanganlik holatiga baho berish;
- asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o`zgarishlariga baho berish;
- korxonaning asosiy vositalar bilan ta`minlanganlik holatini yaxshilash bo`yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash va ularga baho berish;
- asosiy vositalarning texnik holatiga baho berish;
- asosiy vositalarning harakat ko`rsatkichlarini o`rganish va ularga baho berish;
- asosiy vositalardan samarali foydalanganlik darajalariga baho berish;
- xodimlarning asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajalariga baho berish;
- asosiy vositalar samaradorligini oshirish bo`yicha mavjud imkoniyatlarni ko`rsatib berish va hokazo.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir vositani ma`lum bir xususiyatlari bo`yicha tasniflash va tarkibiy joylashtirib chiqish zaruriyati paydo bo`ladi. Xususan, korxonalarining asosiy vositalarini ham ma`lum bir xususiyatlari bo`yicha tasniflab, ularni tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi. Bugungi kunda asosiy vositalarni quyidagi xususiyatlari bo`yicha tasniflashimiz mumkin:

1. Asosiy vositalarning korxonaning ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga qarab:

- faol asosiy vositalar;
- nofaol asosiy vositalar.

2. Asosiy vositalarni ma`lum tarmoqlar bo`ysinuviga qarab:

- sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari;
- boshqa tarmoq asosiy vositalari;
- noishlab chiqarish asosiy vositalari.

### 3. Asosiy vositalarning foydalanish jarayonidagi qatnashuviga qarab:

- foydalanishdagi asosiy vositalar;
- foydalanishdan olib qo'yilgan (konservatsiya qilingan) asosiy vositalar.

### 4. Asosiy vositalarning turlarga ajratilishi bo'yicha:

- yer;
- binolar;
- inshootlar;
- uzatish moslamalari;
- hisoblash texnikasi va kompyuterlar;
- mashina va uskunalari;
- transport vositalari;
- asbob – uskunalari;
- xo'jalik jihozlari;
- ishlab chiqarish inventarlari;
- ishchi va mahsuldor hayvonlar;
- ko'p yillik ekinlar va boshqa asosiy vositalar.

### 5. Mulkiy egaligiga qarab:

- o'ziga tegishli asosiy vositalar;
- ijaraga olingan asosiy vositalar.

Asosiy vositalarning umumiy hajmida alohida guruhlarining qiymat bo'yicha o'zaro nisbati asosiy vositalarning turlar bo'yicha tuzilmasini aks ettiradi hamda amaliyotda foizlarda o'lchanadi. Korxonada asosiy vositalari tuzilmasining, birinchi o'rinda uning aktiv qismini – mashina va asbob – uskunalarni ko'paytirishga yo'naltirilgan takomillashtirishdan manfaatdor bo'lishi lozim. Ularning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori shunchalik katta bo'ladi va aksincha.

Korxonada ishlab chiqarish samaradorligi darajasiga foydalanishda boʻlgan asosiy vositalarning yoshi, yaʼni mashina va asbob – uskunalarning ishlatilish muddati katta taʼsir koʻrsatadi. Mashina va uskunalarning foydalanish muddati qanchalik yuqori boʻlsa, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari shunchalik past boʻladi, mahsulotlar sifati pasayadi, bekor turib qolish va talofatlar koʻpayadi hamda aksincha. Bundan tashqari, korxonada asbob –uskunalaridan uzoq vaqt mobaynida foydalanilganida taʼmirlash uchun ham koʻp xarajatlar sarflanadi.

Korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishda mehnat qurollari (asosiy vositalar) va ishchi kuchidan tashqari aylanma mablagʻlarga ham ega boʻlishlari zarur.

Aylanma mablagʻlar ishlab chiqarishning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil qilishga moʻljallangan pul mablagʻlaridan iborat. Aylanma mablagʻlar qoidaga koʻra korxonaning hisob raqamida naqd pul koʻrinishida jamgʻariladi. Har bir korxonaning aylanma mablagʻlari asosiy fondlarning texnik holati va mahsulot ishlab chiqarish dasturi bilan bogʻliq. Korxonada qanchalik katta va uning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari turlari koʻp boʻlsa, aylanma mablagʻlar shunchalik koʻp talab qilinadi. Aylanma mablagʻlar ishlab chiqarish va uning uzluksizligini taʼminlashning moddiy asosi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalarining aylanma mablagʻlariga yetarli tarzda ega boʻlishi ularning meʼyorli faoliyat yuritish garovi hisoblanadi. Shuni ham unutmaslik zarurki, ishlab chiqarayotgan mahsulot birligiga sarflanuvchi xom ashyo, material, yoqilgʻi va energiya miqdori mahsulot sifatiga taʼsir koʻrsatmagan holda qanchalik kam boʻlsa, mahsulot shunchalik arzonlashadi hamda aylanma mablagʻlar kamroq sarflanib, ulardan foydalanish samaradorligi yuqori boʻladi. Korxonaning aylanma mablagʻlari aylanma fondlari va muomala fondlariga taqsimlanadi. Bunday taqsimlash ularning moddiy – buyumlashgan tuzilishidan tashqari, ishlab chiqarish jarayoni va umuman, korxonaning iqtisodiy faoliyatidagi ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, taqsimlash rejalashtirishni tashkil qilishda hamda korxonaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida aylanma mablagʻlarga boʻlgan ehtiyojini aniqlashda katta rol oʻynaydi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari – korxonada ishlab chiqarish fondlarining bir qismi boʻlib, bitta ishlab chiqarish sikli davomida sarflanadi hamda natural shaklini oʻzgartirib, oʻz qiymatini toʻliqicha tayyor mahsulot tannarxiga oʻtkazadi. Shu sababli aylanma ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonining majburiy elementi va ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismi hisoblanadi.

Korxonada aylanma ishlab chiqarish fondlari qatoriga xom ashyo va materiallar zaxirasi, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilgʻi va energetika resurslari, qadoqlash va oʻrov materiallari, ehtiyot qismlari, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelajakdagi xarajatlarni kiritish mumkin. Rejalashtirish, tizimli hisob va hisobotni tashkil qilish uchun qulaylik yaratish maqsadida aylanma ishlab chiqarish fondlari uch guruhga boʻlinadi:

- ishlab chiqarish zaxiralari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar;
- kelgusi davr xarajatlari.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxonada aylanma mablagʻlarining asosiy va salmoqli qismi sifatida oʻz tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

- ishlab chiqarish zaxiralari – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarishga kiritish uchun tayyorlangan hamda xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilgʻi, xarid qilinuvchi yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, qadoqlash va oʻrov materiallari, asosiy fondlarni taʼmirlash uchun ehtiyot qismlar, yoqilgʻi moylash materiallaridan tashkil topuvchi mehnat predmetlari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar – ishlab chiqarish jarayonida foydalanishga topshirilgan hamda ishlov berish va yigʻuv jarayonida boʻlgan, lekin ishlab chiqarish jarayoni toʻliq tugallanmagan hamda ushbu korxonada keyinchalik ishlov berilishi lozim boʻlgan mehnat predmetlari;
- kelgusi davr xarajatlari – ayni paytda ishlab chiqarilayotgan, lekin kelajakdagi mahsulotlarga mansub boʻlgan yangi turdagi mahsulotlarni tayyorlash va oʻzlashtirish xarajatlari (masalan, asbob – uskunalarini qayta rejalashtirish,

mahsulotlarning yangi turlarini tayyorlash va loyihalashtirishga sarflanuvchi xarajatlar va boshqalar).

Muomala fondlari korxonaning tayyor mahsulot zaxirasini yaratish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari, shuningdek, chek va veksellar, aksiyadorlarning qarzlari, turli xil debitorlik qarzlari, bank va hisob raqamlaridagi mablag'lardan iborat bo'ladi. Muomala fondlari va aylanma ishlab chiqarish fondlari majmuasi, korxonaning aylanma mablag'larini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishda band bo'lgan aylanma mablag'lar kattaligini belgilovchi asosiy omillar – mahsulot tayyorlashning ishlab chiqarish sikli uzunligi, mehnatni tashkil qilish, texnika va texnologiyaning rivojlanish darajasi, mehnat predmetlari va qurollaridan foydalanish me'yorlaridir. Aylanma mablag'lar kattaligi, shuningdek, mahsulotlarni sotish sharoitlari, ta'minot va mahsulotni sotish tizimini tashkil qilish darajasi bilan ham bog'liq bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, aylanma mablag'lardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- xom ashyo, material, ehtiyot qismlari hamda ishlab chiqarishni tashkil qilishda zarur bo'lgan boshqa mehnat predmetlari;
- ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinuvchi elektr – energiyasi, yoqilg'i kabi resurslar uchun haq to'lash;
- korxonani tashkil etish va faoliyat yuritish davrida oylik ish haqi to'lanishi;
- soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash.

Bozor munosabatlari va deyarli barcha resurslar taqchilligi sharoitlarida aylanma mablag'lar, birinchi o'rinda moddiy resurslardan ratsional foydalanish va ularni shakllantirish zaxiralarini izlab topish har bir korxonada turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bunda zaxira deganda, moddiy va pul resurslarini yaxshilashning yuzaga kelgan yoki yuzaga kelayotgan, lekin hali foydalanilmagan (to'liq yoki qisman) imkoniyatlarini tushunish lozim.

Aylanma mablag'lar hajmini optimallashtirish va ularni mahsulot ishlab chiqarish dasturlariga mos holga keltirish korxonaning tejamkorlik rejimida faoliyat yuritishi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Shu sababli xom ashyo va materiallarni sarflashning texnologik me`yorlariga rioya qilish talab etiladi.

Aylanma mablag`larning me`yori eng avvalo uning shakllanish manbalariga bog`liq bo`ladi. Shakllanish manbalariga ko`ra, aylanma mablag`lar xususiy va qarzga olingan turlarga bo`linadi.

Xususiy aylanma mablag`lar doimo korxonada bo`lib, xususiy resurslar, asosan foyda hisobiga shakllanadi. Korxonaning aylanma mablag`lari qatoriga ish haqi bo`yicha qarzlari, ta`minotchilar yoki hamkorlar qarzlari, buyurtmachilarning tayyorlangan mahsulot uchun to`lagan pullari kabilarni kiritish mumkin. Bu mablag`lar xususiy mablag`larga tenglashtirilgan mablag`lar yoki korxonaning barqaror passivlari deb ataladi.

## **1.2. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalaydigan ko`rsatkichlar tizimi**

Moddiy resurslardan foydalanish samardorligini ifodalash juda ko`p ko`rsatkichlar orqali amalga oshiriladi. Eng avvalo moddiy resurslar sarfi ko`rsatkichlari va moddiy resurslardan foydalanish darajalari ko`rsatkichlariga to`xtalib o`tish lozim, ular bir – birlaridan farqlanadi.

Moddiy resurslar sarfi ularning ishlab chiqarish iste`molini ifodalaydi. Ishlab chiqarish xarajatlari korxonada tomonidan bevosita mahsulot ishlab chiqarish bo`yicha dasturini bajarishga sarflangan barcha moddiy resurslar miqdorini qamrab oladi. Moddiy resurslar ta`mirlash ehtiyojlariga, yordamchi xo`jalikni ta`minlashga, korxonada ichida transport xizmatiga, madaniy – maishiy ehtiyojlarga ham sarflanadi. Moddiy resurslar iste`moli ularning umumiy va salmoqli ulushi bilan tavsiflanadi.

Moddiy resurslar umumiy sarfi – bu hisobot davrida butun ishlab chiqarish dasturini bajarish uchun jami moddiy resurslar yoki uning alohida turlari iste`molidir. Moddiy resurslar umumiy sarfi – natural shaklda; turli xil moddiy resurslarning jami sarfi qiymat shaklida hisobga olinadi.

Muayyan “m” turdagi resurslarning salmoqli ulushi deganda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot birligiga sarflangan moddiy resurslar miqdori tushuniladi. U hisobot davrida mazkur mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan barcha moddiy resurslar

miqdorini ( $MR_m$ ) ushbu mahsulotning yaroqli birliklari miqdoriga ( $N$ ) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$m = (MR_m) : N \quad (1.2.1)$$

Quyidagi formula bo'yicha bir turdagi "m<sub>1</sub>" mahsulot iste'mol xususiyatining bir birligiga moddiy resurslar salmoqli sarfini ham hisoblash mumkin:

$$m_1 = \frac{Mb_m MR_s}{M_{iuh}} \quad (1.2.2)$$

Bu yerda:

$MR_s$  – mahsulotning bir jismoniy birligiga moddiy resurslarning salmoqli sarfi;

$Mb_m$  – hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot birliklari miqdori;

$M_{iuh}$  – hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot iste'mol xususiyatining umumiy hajmi.

Mahsulot ishlab chiqarishga moddiy resurslar sarfining umumiy tavsifi bo'lib material sig'imi ko'rsatkichi ( $M$ ) xizmat qiladi. U mahsulot birligiga (yoki iste'mol xususiyati birligiga) natural yoki qiymat shaklida moddiy resurslar haqiqiy sarfini baholaydi. Bu ko'rsatkich alohida turdagi moddiy resurslar (material sig'imi, energiya sig'imi, yonilg'i sig'imi) sarfini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar bilan bevosita bog'liq. Bu ko'rsatkichlar natural, natural – qiymat va qiymat shaklida o'lchanadi. Mahsulotning material sig'imi turli ko'rsatkichlar bilan o'lchanishi mumkin:

1) ishlab chiqarilgan mahsulot bir birligiga moddiy resurslarning salmoqli sarfi (salmoqli material sig'imi):

$$M = m = MR_m : N \quad (1.2.3)$$

2) ishlab chiqarilgan mahsulot bir birligiga bir necha turdagi moddiy resurslarning qiymat shakldagi sarfi miqdori ( $1t$ ,  $1m^3$ ,  $1m^2$  hisobiga so'm).

$$M = \frac{\sum MR_M : R}{N} \quad (1.2.4)$$

Bu yerda;  $R$  – moddiy resurslarga ulgurji narx.

Bu formulalardan oddiy turdagi mahsulotlarning material sig'imini hisoblash uchun foydalaniladi. Murakkab turdagi mahsulotlar uchun material sig'imining

asosiy iste'mol xususiyati birligiga muayyan moddiy resurslar sarfi kabi ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqish va sanoat korxonalarini ishini tahlil qilish uchun har bir sanoat tarmog'ida moddiy resurslardan samarali foydalanish darajasining turli xil ko'rsatkichlari ishlatiladi. Ular ishlab chiqarishda moddiy resurslardan foydalanish shart – sharoitlarini to'liq aks ettiradi va ishlab chiqarish iste'molining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Xom ashyoga birlamchi ishlov beradigan tarmoqlarda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- boshlang'ich xom ashyoning foydalilik darajasi (masalan, paxtadan chiqadigan tola miqdori);
- boshlang'ich xom ashyodan foydalanish darajasi va xom ashyoga ishlov berishdagi yo'qotishlar foizi;
- yaroqli mahsulotni yakuniy ishlab chiqarish (yaroqli mahsulotning boshlang'ich xom ashyo hajmiga bo'lish bilan, u foizlarda hisoblanadi).

Shu bilan birga moddiy resurslarning tarkibiy tuzilmalaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan ham keng foydalaniladi. Ma'lumki, moddiy resurslar tarkibida asosiy ishlab chiqarish vositalari alohida ahamiyat kasb etadi va ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni bir necha guruhlarga bo'lish orqali o'rganiladi:

- asosiy ishlab chiqarish vositalarining qiymatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ulardan foydalanish darajasini, ularning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ishlab chiqarish fondi bilan qurollantirish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- integral ko'rsatkichlar.

Bu ko'rsatkichlar tizimida ayniqsa, fond qaytimi ko'rsatkichi va fond sig'imi ko'rsatkichi alohida o'rin egallaydi.

Fond qaytimi bir so'mlik asosiy fond ishtirokida qancha mahsulot ishlab chiqarish mumkinligini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$F_q = Q/F_{as} \quad (1.2.5)$$

Bu yerda:  $F_q$  – fond qaytimi (so`m hisobida);

$Q$  – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati (so`m hisobida);

$F_{as}$  – asosiy fondlarning o`rtacha yillik qiymati.

Fond sig`imi fond qaytimiga teskari ko`rsatkich bo`lib, ma`lum miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish uchun qancha asosiy fond kerakligini ifodalaydi va quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$F_s = F_{as}/Q \quad (1.2.6)$$

Asosiy fondlardan foydalanishni ifodalaydigan ko`rsatkichlardan yana biri jihozlardan foydalanish ko`rsatkichlaridir. U jihozlardan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsiyentlarini o`z ichiga oladi:

a) ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti ( $K_e$ ). U jihozlarning rejali ish vaqti fondida ( $T_{jr}$ ) haqiqiy ishlagan vaqti ( $T_{jx}$ ) darajasini ko`rsatadi:

$$K_e = T_{jx}/T_{jr}, \quad (1.2.7)$$

b) intensiv foydalanish koeffitsiyenti ( $K_{in}$ ). U jihozlarning minimum mahsulot ishlab chiqarishi mumkin bo`lgan miqdoriga ( $M_m$ ) nisbatan haqiqiy ishlab chiqargan mahsulot miqdori ( $M_x$ ) darajasini ko`rsatadi:

$$K_{in} = M_x/M_m \quad (1.2.8)$$

Asosiy vositalar iqtisodiy tuzilishini va holatini ifodalash uchun ko`rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Eskirish koeffitsiyenti ( $K_{esk}$ ) eskirish summasining asosiy vositalar boshlang`ich qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_{esk} = \frac{Av_e}{Av_{bq}} = \frac{F_1 011 - satr}{F_1 010 - satr}, \quad (1.2.9)$$

Bunda:

$Av_e$  – asosiy vositalar eskirish summasi;

$Av_{bq}$  – asosiy vositalarning boshlang`ich qiymati;

$F_1$  – 1- shakldagi “Buxgalteriya balansi”;

010 va 011 – satrlar – balans satrlari.

Asosiy vositalarning yaroqsizlik koeffitsiyenti ( $K_{yar}$ ) qoldiq qiymatining (eskirish chegirilgan holdagi boshlang`ich qiymat) boshlang`ich qiymatga nisbati sifatida quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_{yar} = \frac{Av_k}{Av_{bk}} = \frac{F_1 012 - satr}{F_1 010 - satr} \quad (1.2.10)$$

Bunda:

$Av_{k,q}$  – asosiy vositalarning qoldiq qiymati.

Yangilanish koeffitsiyenti ( $K_{yang}$ ) yil mobaynida yangi kelgan asosiy vositalarning yil oxiridagi ular qoldig`iga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{yang} = \frac{Av_{ya.k}}{Av_{da.b.q}} = \frac{F_3 4 - ustun130 - satr}{F_3 6 - ustun130 - satr} \quad (1.2.11)$$

Bunda:

$Av_{ya.k}$  – yangi kelgan asosiy vositalar summasi;

$Av_{do.b.q}$  – asosiy vositalarning davr oxiridagi boshlang`ich qiymati;

$F_3$  – 3-shakl “Asosiy vositalar harakati haqidagi hisobot”

Hisobdan chiqarish koeffitsiyenti ( $K_{h.ch}$ ) yil mobaynida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning yil boshidagi qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{yar} = \frac{Av_{h.ch}}{Av_{db.b.q}} = \frac{F_3 5 - ustun130 - satr}{F_3 3 - ustun130 - satr} \quad (1.2.12)$$

Bunda:

$Av_{h.ch}$  – hisobot davrida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar.

$Av_{db.b.q}$  – asosiy vositalarning davr boshidagi boshlang`ich qiymati;

Mazkur koeffitsiyentlar barcha asosiy vositalar hamda alohida turlari va guruhlar bo`yicha hisoblanadi, qator yillar mobaynidagi o`zgarishi ko`rib chiqiladi va tegishli xulosalarga kelinadi.

Asosiy vositalar tuzilmasi tarmoq ixtisosligidan kelib chiqib aniqlanadi va korxonaning ishlab chiqarish va texnik ta`minoti xususiyatlarini aks ettiradi. U

korxonalar asosiy vositalari umumiy summasida va noishlab chiqarish, aktiv va passiv qismining hajmiga hamda ularning yil mobaynidagi o'zgarishlari va dinamikasiga bog'liqdir.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida korxonalar tuzilmalari bo'yicha asosiy vositalar samaradorligi, texnik jihozlanishining darajasi, qo'l mehnati kamayishi va ishlab chiqarish samaradorligi oshishi haqida xulosalar chiqarish mumkin. Asosiy vositalar tuzilmasini hisob – kitob qilish uchun 3 – shakldagi “Asosiy vositalar harakati haqidagi hisobot” ma'lumotlari qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichlar asosiy vositalar holatining yaxshilanish (yomonlashish) sabablarini aniqlagan holda dinamikasini o'rganib, hisob – kitob qilish zarur.

Asosiy vositalar boshlang'ich qiymatining qoldiq qiymatiga nisbatan keskin o'sishi koeffitsiyentlarda eskirish ko'payganligi va ular yaroqliligi kamayganligini, ya'ni holati yomonlashganini ko'rsatadi.

Qoldiq qiymatining boshlang'ich qiymatga nisbatan keskin o'sishi asosiy vositalar yangilangan, ularning eskirishi qisqarganidan dalolat beradi. Eskirishni kamaytirish, ya'ni asosiy vositalar holatini yaxshilash usullaridan biri o'z vaqtida kapital ta'mirlash, yangilarini xarid qilish, shuningdek, ma'naviy va jismoniy eskirgan uskunalarni hisobdan chiqarishdan iboratdir. Bu tadbirga erkin raqobat hukm surib turgan bozor munosabatlari sharoitida alohida ahamiyat berish lozim.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik korxonaning texnik jihatdan ta'minlanganligi, mehnat va ishlarning mexanizatsiyalashganligi, va avtomatlashganligini koeffitsiyentlar orqali ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar orqali har bir korxonaning moddiy – texnika bazasi bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash mumkin. Shu tufayli ushbu ko'rsatkichlar asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatining (boshlang'ich baholanishi bo'yicha) eng katta smenadagi ishchilar soniga nisbatidir. U ishchilarning mehnat qurollari (asosiy vositalar) bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiradi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{f,t} = \frac{Av_i}{I_s}, \quad (1.2.13)$$

Bunda:

$K_{f,t}$  – xodimlarning asosiy vositalar bilan ta`minlanganligining koeffitsiyenti;

$Av_i$  – asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati;

$I_s$  – eng katta smenadagi ishchilar soni.

Tahlil qilish uchun 3-shakl moliyaviy hisobot va 1-T shakl statistik hisobotdan ma`lumotlar olinadi. Agar korxonada bir smenada ishlasa, eng katta smenadagi ishchilar soni buxgalteriyadan yoki ish haqi berilgan maosh oluvchilar ro`yxatlaridan olinadi, chunki hisobotda ular bo`lmasligi mumkin. Agar ish bir smenada tashkil qilingan bo`lsa, barcha asosiy ishlab chiqarishda band bo`lgan xodimlar olinadi.

Texnik ta`minlanganlik koeffitsiyenti ( $K_{t,t}$ ) ishlab chiqarish uskunalari summasining (ya`ni asosiy vositalar aktiv qismining) eng katta smenadagi ishchilar soniga nisbati sifatida hisoblanadi va quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$K_{t,t} = \frac{I_{us.}}{I_s} \quad (1.2.14)$$

Bunda:

$K_{t,t}$  – texnik ta`minlanganlik koeffitsiyenti;

$I_{us.}$  – ishlab chiqarish uskunalari summasi.

Bu koeffitsiyentlar yil uchun va muayyan sanaga hisoblanishi mumkin. Yil uchun hisoblanganda asosiy vositalar va ishchilar soni haqidagi o`rtacha yillik ma`lumotlar olinadi.

Ishlarning mexanizatsiyalashganlik koeffitsiyenti mexanizatsiya orqali bajarilgan ishlarga sarflangan vaqtning umumiy sarflangan vaqtga nisbati sifatida aniqlanadi.

Mavjud hisobotda hozircha mexanizatsiya yo`li bilan bajarilgan ishlarga sarflangan vaqt, mehnati mexanizatsiyalashgan yoki qisman mexanizatsiyalashgan xodimlar soni haqidagi ma`lumotlar keltirilmagan. Shuning uchun mehnat mexanizatsiyasi koeffitsiyentlarini hisoblash uchun ma`lumotlar tanlanib, kuzatish yordamida yoki uni ekspertlar orqali aniqlash mumkin.

Asosiy vositalar bilan ta`minlanganlik ko`rsatkichlarini o`tgan yil va qator yillar bilan taqqoslab, o`zgarishlar qonuniyatlari, ishlab chiqarish dasturining

bajarilishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi va qo`l mehnati erkinlashishiga ta`siri haqida tegishli xulosalar chiqarish mumkin.

Asosiy vositalardan ( $A_v$ ) foydalanish samaradorligi darajasidan umuman ishlab chiqarish samaradorligi kelib chiqadi. Asosiy vositalardan qanchalik ko`p foydalanilsa, shunchalik ko`p mahsulot chiqariladi, uning tannarxi arzonlashadi, mehnat samaradorligi, foyda va rentabellik yuqori bo`ladi.

Aylanma mablag`larning kunlarda ifodalangan miqdorini hisoblash, buxgalteriya hisoboti ma`lumotlari asosida amalga oshiriladi. Bu ko`rsatkich korxonaning ishlab chiqarish dasturini bajarish chog`ida aylanma mablag`lar necha kunga yetishini ko`rsatadi.

Biroq ushbu aylanma mablag`lardan hisobot davrida emas, balki keyingi davrda foydalaniladi. Shu sababli, aylanma mablag`larning asl summasini keyingi chorakda mahsulot ishlab chiqarishga qilinadigan bir kunlik xarajatlarga taqsimlash kerak. Bu ko`rsatkichni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_{ay.m} = \frac{Aym * 90}{I_{xarajat}}, \quad (1.2.15)$$

Bunda:

$K_{ay.m}$  – kunlarda ifodalangan aylanma mablag`lar;

$Aym$  – aylanma mablag`lar summasi;

$I_{xarajat}$  – keyingi chorakdagi ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy miqdori.

Ushbu ko`rsatkich kunlarda va summada ifodalangan amaldagi aylanma mablag`lar me`yorlari bilan taqqoslash uchun kerak.

Aylanma mablag`larning o`rtacha yillik summasi o`rtacha xronologik formula bo`yicha hisoblab chiqariladi:

$$Aym_o = \frac{Aym_1 \frac{1}{2} + Aym_2 + Aym_3 + Aym_4 + Aym_5 \frac{1}{2}}{4} \quad (1.2.16)$$

Bunda:

$Aym_o$  - aylanma mablag`larning o`rtacha yillik summasi;

$Aym_1, \dots, Aym_5$  – choraklar boshi va oxiridagi aylanma mablag`lar summasi.

Aylanma mablag`lar bilan ta`minlanganlikni ifodalovchi ko`rsatkichlarni tahlil qilishda aylanma mablag`larning summasi va aylanish tezligini belgilangan me`yorlar bilan taqqoslash; o`z va qarz mablag`larining muomaladagi ishtirokini aniqlash; aylanma mablag`larning umumiy hajmi va turlar bo`yicha shakllari va manbalarini o`rganib chiqish lozim bo`ladi.

Aylanma mablag`lardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish tezligi, daromadlilik va rentabeligi bilan, ya`ni aylanma mablag`larning 1 so`miga to`g`ri keladigan foyda miqdori bilan belgilanadi.

Aylanma mablag`larning kunlarda ifodalangan aylanish tezligi aylanma mablag`lar o`rtacha yillik summasining bir kunlik sotilgan mahsulot qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$Aym_a = \frac{Aym_{o's} * K}{S}, \quad (1.2.17)$$

Bunda:

$Aym_a$  - aylanma mablag`lar aylanuvchanligi;

$Aym_{o's}$  - aylanma mablag`lar o`rtacha yillik summasi;

$S$  – mahsulot sotish summasi;

$K$  – davrdagi kunlar soni (odatda, bir yilda 360, yarim yilda 180, 1 chorakda 90, 1 oyda 30 kun).

Aylanma mablag`larning necha marta aylanish (aylanish koeffitsiyenti –  $A_k$ ) sotilgan mahsulot summasining aylanma mablag`lar o`rtacha yillik summasiga nisbati sifatida aniqlanadi yoki davrdagi kunlar soni (360) aylanma mablag`larning aylanish kunlariga bo`linadi. Bu quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$A_k = \frac{S}{Aym_{o's}} \text{ yoki } A_k = \frac{360}{Aym_a}. \quad (1.2.18)$$

Aylanma mablag`lar rentabelligi sof foydaning aylanma mablag`lar o`rtacha yillik summasiga nisbati sifatida quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$Aym_r = \frac{SF * 100}{Aym_{o's}}, \quad (1.2.19)$$

Bunda:

$Aym_r$  - aylanma mablag`lar rentabelligi;

SF – sof foyda.

Bu ko`rsatkich korxonada aylanma mablag`larining 1 so`miga qancha foyda olinayotganligini bildiradi.

Aylanma mablag`lar daromadlilikligi ( $Aym_d$ ) daromad (D) summasini aylanma mablag`larning o`rtacha yillik qiymatiga taqsimlash yo`li bilan aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$Aym_d = \frac{D * 100}{Aym} . \quad (1.2.20)$$

Aylanma mablag`lardan foydalanish samardorligini tahlil qilganda ularga doir ko`rsatkichlarni hisoblab chiqish, bu ko`rsatkichlarni o`tgan yil va biznes reja ma`lumotlari bilan taqqoslash kerak. Shundan keyin bu ko`rsatkichlarning o`zgarish darjasiga turli omillar ta`siri aniqlanadi. Mazkur omillarni o`rganish asosida aylanma mablag`lardan foydalanish samardorligini oshirish yo`llarini aniqlash va tavsiya etish kerak bo`ladi.

Aylanma mablag`lar aylanishining tezlashuvi (sekinlashuvi) ishlab chiqarish dasturini bajarish uchun mablag`larni bo`shatib beradi (qo`shimcha jalb etadi).

Shunday qilib, aylanma mablag`lar aylanishining tezlashuvi (sekinlashuvi) natijasida bo`shatib olingan (qo`shimcha jalb qilingan) mablag`larni aniqlash uchun sotishdan kelgan bir kunlik tushumni aylanma mablag`lar aylanishining tezlashish (sekinlashish) kunlari soniga quyidagi formula bo`yicha ko`paytirish kerak bo`ladi:

$$Aym = \frac{S_1 * (Aym_a - Aym_{as})}{K} , \quad (1.2.21)$$

Bunda:

$Aym$  – bo`shatib olingan (qo`shimcha jalb etilgan) aylanma mablag`lar summasi;

$S_1$  – hisobot davrida sotilgan mahsulot summasi;

$K$  – tahlil qilinayotgan davrdagi kunlar soni ;

$Aym_a$  - aylanma mablag`larning hisobot davri kunlaridagi aylanishi;

Aym<sub>as</sub> - aylanma mablag`larning asos davri kunlaridagi aylanishi.

Aylanma mablag`lardan foydalanish samaradorligi ko`rsatkichlariga juda ko`p omillar ta`sir etadi. Ularning asosiylari quyidagilardir:

- mahsulot hajmining ko`payishi;
- aylanma mablag`lar tuzilishining yaxshilanishi;
- aylanma mablag`larni belgilangan me`yorlar darajasiga yetkazish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish;
- chiqarilayotgan mahsulotga talabni o`rganishning yaxshilanishi;
- xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob – kitoblarning yaxshilanishi

kabilar.

Tahlil chog`ida ushbu omillarni o`rganish va aylanma mablag`lardan foydalanish samaradorligiga ko`rsatadigan ta`sirini hisoblab chiqish kerak bo`ladi.

### **1.3. Moddiy resurslardan samarali foydalanishning zarurligi va ahamiyati**

Mamlakat iqtisodiyotining intensiv taraqqiyot yo`liga o`tkazishning muhim shartlaridan biri - xomashyo, materiallar, yonilg`i va energiyadan samarali tarzda foydalanish va ularni tejashdir. Bunda avvalambor «samarali» so`ziga tushuncha berishga harakat qilamiz. «Samarali» deganda o`ylab, maqsadga muvofiq, asoslangan holda foydalanish tushuniladi.

«Samaradorligini oshirish» deganda takomillashtirish, yaxshilash tashkil etish darajasini orttirishni tushunish mumkin.

Moddiy resurslardan samarali foydalanish-bu tashkil etishning ma`lum darajasida moddiy resurslardan foydalanishning sifat tavsifidir. Moddiy resurslarni iste`mol qilish samaradorligini oshirish ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bog`liq tarzda ulardan foydalanishni takomillashtirib borishning uzluksiz jarayonidir.

Klassik iqtisodchilar fikriga ko`ra, ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan har qanday xom ashyo va materiallar ko`plab xususiyatlarga egadirlar. Shu sababli ularning ana shu xususiyatlariga ko`ra foydalanishgina samara beradi deb hisoblaymiz. Har bir material ma`lum bir sohada katta samara berishi

bilan birga, ikkinchi bir sohada samarasiz bo`lishi mumkin. Iqtisoddagi muhim muammolardan biri ham ana shunda, ya`ni har bir resursning samarali bo`ladigan jarayonni topishdir. Aks holda amalga oshirilayotgan barcha tadbirlar samarasiz tugashi mumkin. Tashkilot va korxonalar faoliyatidagi eng muhim holat ham har bir materialning o`ziga xos xususiyatini topib olishdadir. Faqatgina ana shu xususiyat tashkilotga samara keltirishi mumkin. Faqat bu yerda shuni unutmaslik lozimki, kechagina samarali hisoblangan xususiyatlar bugungi kunga kelib fan yutuqlari natijasida samarasiz holatga kelishi mumkin. Moddiy resurslardan foydalanganlar ana shu qonuniyatga amal qilish lozim.

Moddiy resurslarni tejash va ulardan samarali foydalanish tushunchalari turli xil ma`noni anglatadi. Har qanday tejash ham moddiy resurslardan samarali foydalanishni nazarda tutmaydi. Masalan, moddiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanib, mahsulotning iste`mol qiymatini pasaytirish moddiy resurslarni tejash bo`ladi, ammo bu bilan biz moddiy resurslardan samarali foydalanishni yo`lga qo`ya olmaymiz. Moddiy resurslardan samarali foydalanish birgina korxonada yoki tashkilot miqyosida emas, balki butun xalq xo`jaligi miqyosida amalga oshishi lozim, ya`ni korxonada amalga oshirilgan ishlar mahsulotning iste`mol qiymatini oshirishi lozim. Amalga oshirilgan ishlar xalqning moddiy ehtiyojlarini to`laroq qondirishga olib kelsagina, biz moddiy resurslardan samarali foydalangan bo`lamiz va jamiyat miqyosida moddiy resurslarni tejagan bo`lamiz.

Mamlakat miqyosida moddiy resurslardan samarali foydalanishning barcha tashkiliy-iqtisodiy tadbirlari ikki yo`nalishdan iboratdir:

1. Taqsimot va muomala bosqichlarda moddiy resurslardan samarali foydalanishni tashkil qilish.
2. Ishlab chiqarish jarayonida moddiy resurslardan foydalanishning darajasini orttirish.

Birinchi yo`nalishda, ya`ni taqsimot va muomala bosqichida moddiy texnika ta`minoti va moddiy resurslarning taqsimotining tizimi yaratiladi va bu tizim ishlab chiqarish jarayonida moddiy resurslardan foydalanish asoslarini yaratadi. Sanoat korxonalarida moddiy resurslardan samarali foydalanish ulardagi ishlab chiqarish

jarayonini takomillashtirishni talab qiladi. Ishlab chiqarishni takomillashtirish natijasida moddiy resurslar tejalihi amalga oshadi.

Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonida moddiy resurslardan foydalanish darajasini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim

- a) tashkiliy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish;
- b) moddiy resurslarni tejashning iqtisodiy vositalaridan foydalanish;
- v) korxonada boshqaruvni takomillashtirish;
- g) ishlab chiqarishni tashkiliy tuzilishini takomillashtirish;
- d) texnik-texnologik tadbirlarni amalga oshirish;
- e) ishlab chiqarishni yangi texnika bilan jixozlash va qayta jixozlash;
- j) ishlab chiqarishdagi barcha jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- z) mehnatni ilmiy tashkil etishni va uning asosiy yo`nalishlari bo`yicha tadbirlarni amalga oshirish;
- i) ishlab chiqariladigan mahsulot tuzilishini takomillashtirish;
- k) korxonada chiqayotgan chiqindilardan va ikkilamchi resurslardan samarali foydalanishni tashkil qilish;
- l) mehnat resurslarini tanlash, o`qitish va malakasini oshirish;

Moddiy resurslarni tejash va ulardan samaraliroq foydalanishning ahamiyati va ko`lami yildan-yilga ortib bormoqda. Bu ishlab chiqarish hajmining ortishi, mahsulotlarning raqobatbardoshligini orttirish maqsadida murakkablashib borishi va shu kabilar bilan asoslanadi.

Moddiy resurslar qiymati ham yildan-yilga ortib bormoqda, moddiy resurslarni tayyorlash va qazib chiqarishdagi xarajatlar ham ortib bormoqda. Shu sababli ularni tayyorlash, qazib chiqarish hisobiga ko`paytirish o`rniga, ularni ishlab chiqarishda tejash orqali miqdorini orttirish samarali hisoblanadi. Sanoat korxonalarida moddiy resurslarni tejash, ularni yangisini olishga qaraganda 2-4 marta arzonroq tushadi. Shu sababli, ularni tejashda samarali foydalanishga katta e`tibor qaratish lozim. Har qanday

korxonada o'z faoliyatida asosiy e'tiborni moddiy resurslardan foydalanishga qaratishi kerak, chunki moddiy resurslar korxonada ishlab chiqaradigan mahsulotlar asosini tashkil qiladi. Shu sababli ulardan samarali foydalanish korxonadagi boshqaruvning barcha yo'nalishlari, sohalari va darajalari faoliyatida asosiy maqsad sifatida qabul qilinadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida moddiy, xom ashyo ta'minotining asosiy vazifasi quyidagilardan iboratdir:

1. Ishlab chiqarishni xom ashyo bilan uzluksiz ta'minlash.
2. Yordamchi materiallardan samarali foydalanish.
3. Yonilg'i va elektroenergiyani o'z vaqtida yetkazib berish.
4. Butlovchi qismlar ta'minoti

Shu bilan birgalikda moddiy, xom ashyo ta'minoti resurslardan samarali foydalanishni, ularni qabul qilish, omborlarga joylashtirish va saqlashni nazarda tutadi.

Ishlab chiqarishda xom ashyo va boshqa moddiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish ikki xil mehnat, ya'ni korxonada sarflanayotgan haqiqiy mehnat ham, o'tgan mehnat ham tejaladi. Korxonada ishlayotgan xom ashyo va boshqa moddiy resurslarni tayyorlash uchun avvalgi ishlab chiqarishlarda mehnat sarflangan. Paxtani yetishtirish, tolani paxtaning chigitidan ajratish va to'qimachilik korxonalariga yetkazib kelish uchun to'qimachilik korxonasi gacha bo'lgan ishlab chiqarishlarda mehnat sarflangan.

Korxonalarda moddiy resurslardan foydalanish mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish mahsulot hajmiga ta'sir ko'rsatadi. Xom ashyodan qanchalik samarali foydalansak chiqindi chiqiti foizlarining kamayishiga hamda ko'proq miqdorda mahsulot ishlab chiqarishga muvaffaq bo'lamiz. Xom ashyo va moddiy resurslardan samarali foydalanish xom ashyo resurslari miqdorini orttirish bilan tenglashtiriladi. Korxonalar foydalanayotgan xom ashyo va moddiy resurslar sarfining ortib ketishi korxonalar iqtisodiy ahvolini og'irlashtiradi.

Ishlab chiqarish korxonalaridagi moddiy xom ashyo ta'minotini boshqarishda asosiy maqsad qilib moddiy xom ashyo resurslaridan tejab-tergab foydalanish hisobiga

ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdir. Bu maqsadga erishish yo`lida moddiy xom ashyo resurslarini tejash, iqtisod qilishning asosiy yo`llariga e`tibor beriladi.

Korxonalarda moddiy resurslarni tejash bilan bog`liq boshqaruv ishlarini korxonaning o`zidagina boshlamaslik kerak. Bu tadbirlarni korxonadan tashqarida, ya`ni moddiy resurslar bizning korxonagacha yetib kelmasdan oldin boshlash lozim. Korxonada foydalaniladigan moddiy resurslarni qayerdan, qaysi tashkilotdan qanday sifatda va qanday narxda olish mumkin, qanday shartnoma tuziladi, qanday transport turida, qancha miqdorda yetkazib kelinadi, xom ashyoning sifat ko`rsatkichlari qanday ahvolda va qaysi tomonga o`zgarishi mumkin, korxonadagi iqtisodchilar xom ashyo ta`minotini tashkil etish va amalga oshirishda hamda xom ashyodan foydalanish jarayonida ana shu savollarga javob topishlari lozim. So`ngra moddiy resurslarni korxonaga tashib kelish amalga oshiriladi. Xom ashyo va materiallarni sotib olishda va tashishda turli variantlarni tuzish va ulardan maqbulini tanlab olish zarurdir. Konkurs asosida ta`minotchi va tashish vositasini tanlash mumkin. Bunda xom ashyo va materiallar uchun xarajatlar eng kam darajagacha kamayishi, sifat ortishiga erishish lozim.

Ishlab chiqarish korxonalariga xom ashyo va boshqa materiallar yetib kelishi bilan moddiy xom ashyo resurslaridan foydalanishda mas`uliyatli bosqich boshlanadi.

Olib kelingan asosiy va yordamchi materiallarni qabul qilish, turlarga ajratish, saqlash, ishlab chiqarishga zaruriy miqdorda yetkazib berish, ishlab chiqarishda ulardan samarali foydalanish, chiqindi chiqitining oldini olish, chiqqan chiqindilardan qayta foydalanish yo`llarini qidirish singari ishlar asosiy o`ringa ko`tariladi. Ishlab chiqarish korxonalarining samarali faoliyati ana shu tadbirlarni amalga oshirish darajasiga ko`p jihatdan bog`liq.

Xom ashyo va boshqa asosiy, yordamchi materiallarni yuklash, tashish va tushirishdagi ehtiyotsizlik, saqlash joylarida omborlarda saqlash texnologiyasining buzilishi, asosiy ishlab chiqarishda xom ashyoning sifatini buzilishiga olib keluvchi holatlarni ro`y berishi, texnologik intizomni buzilishida dastgohlardagi nosozliklar, boshqa iqtisodiy resurslardan foydalanishdagi kamchiliklar va shu kabi holatlar moddiy resurslardan samarasiz foydalanishga sabab bo`ladi. Shu sababli har bir

tashkilotda moddiy resurslardan samarali foydalanishning yuqorida ko`rsatib o`tilgan tashkiliy iqtisodiy tadbirlarini tuzish va ularga amal qilish katta ahamiyatga ega.

## **2-BOB. "FARG`ONAAZOT" OAJNING MODDIY RESURLAR BILAN TA`MINLANISHI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.**

### **2.1. Korxonaning umumiy tavsifi va asosiy xajmiy ko`rsatkichlarining dastlabki tahlili**

“Farg’onaazot” OAJ O‘zbekiston Respublikasining yirik kimyo korxonasi hisoblanadi. Xozirgi kunda yiliga 450000 tonna ammiak, 330000 tonna karbamid, 450000 tonna ammiakli selitra, 360000 tonna konsentratsiyalanmagan azot kislotasi, 6500 tonna kristalli xlorit natriy, suyuq xlorit magniysi, 220232 tonna sirka kislotasi, 11800 tonna defoliant, 1500 tonna deatsitatli sellyuloza ishlab chiqarmoqda.

“Farg`onaazot” OAJning yuqori tashkiloti “Uzkimyosanoat” DAK hisoblanadi. Korxonaning asosiy faoliyati mineral o`g`itlar va o`simliklarni himoya qiluvchi kimyoviy moddalar ishlab chiqarishdir. Korxonada mahsuloti nafaqat qishloq xo`jaligida balki kimyo va yengil sanoatda ham ishlatiladi. Ustav fondi 40829845 ming so`mni tashkil etadi. Korxonaning asosiy aksionerlar quyidagilar hisoblanadi:

1. “Uzkimyosanoat” DAK -51%;
2. Chet ellik investorga tenderdagi oldi-sotdi orqali 47% tegishli;
3. Mehnat jamoasiga 2%

“Farg`onaazot” OAJ umumiy maydoni 388 gani tashkil etadi, shu jumladan 121,9 ga ishlab chiqarish maydonidir. Bugungi kunda korxonada 24 ta sex faoliyat ko`rsatib, ulardan 11 tasi ishlab chiqarish sexlaridir.

### 2.1.1 –jadval

#### “Farg’onaazot” OAJ ishchilarining tarkibiy tuzilishi

Ko'rsatkichlar	2013 yil	
	Soni	Salmog`i % da
<b>Boshqaruv xodimlari</b>	345	4,7
<b>Ishchilar</b>	6129	84,0
<b>Ishlab chiqarishda band bo'lmagan xodimlar</b>	823	11,3
<b>Jami</b>	7297	100

Korxonada jami 7297 nafar xodimlar bo'lib, ularning 84 % i, ya'ni 6129 nafari ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilar, 345 nafari boshqaruv xodimlari, 823 nafari esa, ishlab chiqarishda band bo'lmagan xodimlar ya'ni,


mutaxassislar, qorovullik xizmati xodimlari va boshqalar tashkil etadi. Bu xodimlarning 100 % salmog'idan boshqaruv xodimlarining 4,7 %, ishlab chiqarishda band bo'lmagan xodimlar esa 11,3 % inigina tashkil etishini anglatadi. Bundan biz ishchilarning o'rni benihoyat katta ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo: tabiiy gaz, sho'r kislotasi, texnik tuz, xlorli magniy, kaustik soda, paxta sellyuloza va boshqalar hisoblanadi.

Mahsulotning katta qismi ichki bozorda sotilib, qishloq xo'jaligi korxonalariga "Qishloq xo'jalik kimyo" hissadorlik jamiyati orqali ta'minlanadi.


Korxonaning mahsuloti asosan Rossiya, Tojikiston, Afg'oniston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Xitoy va Eron davlatlariga eksport qilinadi. Mahsulotni eksport qilinishi "Markazsanoateksport" tomonidan amalga oshiriladi.

"Farg'onaazot" OAJ asosan karbamid, ammiakli silitra, defoliant mahsulotlarini eksport qiladi. 2013-yilda eksportning ko'p qismini karbamid (86,5%) tashkil etganligi bu mahsulotga bo'lgan talabning yuqori ekanligini ko'rsatadi.



### **2.1.1-rasm. "Farg'onaazot" OAJ eksport mahsulotlarining taqsimlanishi**

Shunday qilib, 2013-yili "Markazsanoateksport" orqali 125409, 8 mln so'mlik mahsulot eksport qilingan.



### **2.1.2-rasm. Karbamid ishlab chiqarish dinamikasi tahlili**

Yuqoridagi rasmdan 2010-2014 yillarda korxonada karbamid ishlab chiqarish o`sb borganligini ko`rish mumkin. Korxonada 2010-2014-yillarda ishlab chiqarilgan mahsulot 46,7 % ga o`sgan bo`lib, 2013-yilda 19,1 mlrd so`mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

Korxonaning asosiy mahalliy iste`molchilari:

- qishloq xo`jaligi;
- kimyo va boshqa sanoat korxonalari.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 11-martdagi “Kimyoviy mahsulotlarning yangi turlarini o`zlashtirish va qurilishni jadallashtirishning choralari to`g`risida” gi №1071 Qaroriga ko`ra “Farg`onaazot” OAJ 2012 yilda 2,1 mlrd. so`mlik yangi tovarlarni ishlab chiqargan va vazifani 96,2 % ga bajargan.

Ko`rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan korxonaning moliyaviy ahvoli og`irligicha qolmoqda.

### **2.2. Korxonada moddiy resurslardan foydalanish ko`rsatkichlari tahlili.**

Korxonalarning moddiy resurslardan foydalanish ko`rsatkichlarini tahlil qilish holati murakkab jarayon bo`lib, uni o`rganish ko`plab ko`rsatkichlar tizimi yordamida amalga oshiriladi. Korxonalarning moddiy resurslar bilan ta`minlanganligi va moliyaviy barqarorligini to`liq va aniq xulosalar asosida o`rganish uchun korxonaning iqtisodiy faoliyati bir qancha bosqichlarda tahlil qilinadi. Bu bosqichda korxonalar faoliyatining hajmi, umumiy samaradorligi, korxonalarning uzoq muddatli va aylanma aktivlari tahlil etiladi.

Quyida keltirilgan jadvalda “Farg`onaazot” OAJda 2012, 2013-yillarda ishlab chiqarilgan tovar va sotilgan mahsulotlar hajmini va o`zgarishini ifodalovchi ko`rsatkichlar keltirilgan.

### 2.2.1-jadval

#### “Farg`onaazot” OAJ da mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarining tahlili

T/r	Ko`rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	O`zgarishi	
				Mutlaq (+,-) ming so`mda	Foizda
1	Tovar mahsulot, ming so`mda	206 568 217	294 587 361	+88 019 144	+42,6
2	Sotilgan mahsulot hajmi, ming so`mda	193 720 481	287 308 764	+93 588 283	+48,3

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinishicha, korxonada 2013-yil hisobot yilida korxonada tovar mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2012-yil o`tgan yildagiga nisbatan 88 019 144 ming so`mga yoki 42,6 %ga oshirilgan. Korxonada sotilgan mahsulot hajmi esa 2013-yilda 2011 yilga nisbatan faqat 93 588 283 ming so`mga yoki 48,3 % ga oshirilgan.

2012-yilda sotilgan mahsulotning tovar mahsulotdagi ulushi 0,93 (193 720 481/206 568 217) ni tashkil etgan bo`lsa, 2013- yilda bu ko`rsatkich 0,97 (287 308 764/ 294 587 361) ga teng bo`lib, 0.04 ga yoki 4 % ga oshgan.

Lekin shunga qaramay, tovar va sotilgan mahsulotlar nisbati korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish jarayonlariga e`tibor kuchaytirilish kerakligini ko`rsatmoqda. Chunki korxonaning ishchanlik faolligi, moliyaviy ahvoli birinchi navbatda yaratilgan mahsulotlarning bozorda sotilishiga bog`liq.

Korxonalarning moddiy resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy barqarorligiga ko`p ta`sir etadigan omillardan biri - bu korxonada aktivlaridan foydalanish darajasi bo`lib, ulardan qanchalik samarali foydalanilsa, korxonalarning foydasi shunchalik yuqori bo`lishiga va korxonaning moliyaviy holati yaxshilanishiga erishish mumkin.

Korxonaning uzoq muddatli aktivlarini tahlil qilishda korxonada tarkibidagi asosiy vositalarni o`rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Asosiy vositalarni muntazam kengaytirib borish, zamonaviy mashina va uskunalarni joriy qilish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, ishlab chiqarishni rivojlantirish qonuniyatlari hisoblanadi. Korxonada moddiy-texnika bazasidan foydalanishni yaxshilash mahsulot chiqarish va sotishni ko`paytirish, foyda va rentabellikni oshirishga olib keladi. Bu asosiy vositalar holatini, u bilan ta`minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligini puxta tahlil qilishini talab etadi. Tahlilga kirishishdan oldin u yoki bu masalani o`rganishda qaysi ko`rsatkichlarni hisoblab chiqish va qaysilaridan foydalanish kerakligini, ularni aniqlash uslubiyatini o`zlashtirib olish zarur bo`ladi.

Korxonaning asosiy vositalar bilan ta`minlanganligini fond bilan ta`minlanganlik, mehnatning mexanizatsiyalashganlik darajasi, ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashganlik darajasi ifodalaydi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini asosini ajratib, ko`rsatkichlar majmui bilan o`lchash lozim bo`ladi. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligining mezoni ulardan kutiladigan foydadir. Buni tavsiflovchi ko`rsatkichlar qatoriga fondning samaradorligi, fondning rentabelligi, asbob-uskunalar unumdorligi kiritiladi.

Asosiy vositalardan foydalanishni tahlil qilishdan maqsad xo`jalikni asosiy vositalar bilan ta`minlanganlik darajasini oshirish, mavjud asosiy vositalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va aniqlangan imkoniyatlarni amaliyotda qo`llash natijasida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishdir. Asosiy vositalardan foydalanishni tahlil qilishning asosiy vositasi bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Asosiy fondlar bilan ta`minlanganlikni, ya`ni tarkibi, hajmi va fondlarni texnik holatini ularga bo`lgan ehtiyojga mos kelishini o`rganish. Ularni ko`payishi va yangilanish darajasi, reja bajarilishini o`rganish.
2. Asosiy vositalarni texnik holatini aniqlash va ularni tahlil qilish.
3. Asosiy fondlardan foydalanish darajasi va ularga ta`sir qiluvchi omillarni aniqlash.

**“Farg`onaazot” OAJ da asosiy vositalar tarkibi va dinamik o`zgarishlarining tahlili**

№	Asosiy vositalar tarkibi	2012 yil		2013 yil		O`zgarishi	
		Summa ming so`m	Salmog`i %	Summa ming so`m	Salmog`i %	Summa ming so`m	%, xis.
1	Bino va inshoot	95 337 529	31,2	117 389 013	32,9	+22 051 484	+17
2	Uzatishlar moslamalari	59 585 955	19,5	67 436 242	18,9	+7 850 287	-0,6
3	Mashina va uskunalar	135 978 206	44,5	159 135 258	44,6	+23 157 052	+0,1
4	Mebel va offis jixozlari	916 707	0,3	1 427 222	0,4	+510 515	+0,1
5	Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi	2 138 983	0,7	2 497 639	0,7	+358 656	-
6	Transport vositalari	4 583 535	1,5	4 995 277	1,4	+411 742	-0,1
7	Maxsuldor hayvonlar	1 833 414	0,6	2 140 833	0,6	+307 419	-
8	Boshqa asosiy vositalar	4 889 104	1,6	1427222	0,4	-3 461 882	-1,2
9	Konservatsiya qilingan asosiy vositalar	305 569	0,1	356 805	0,1	+51 236	-
	Jami asosiy vositalar	305 569 002	100,0	356 805 511	100,0	+51 236 509	

Jadval ma`lumotlariga asoslanib, biz tahlil qilayotgan “Farg`onaazot” OAJda, o`rganilayotgan davrda o`tgan yilga nisbatan jami ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar hajmi 51 236 509 ming so`mga ko`payganligini ko`ramiz. 2013-yilda

mazkur korxonadagi asosiy vositalarning 117 389 013 ming so`mini “Binolar” tashkil etib, bu ko`rsatkich o`tgan yilga nisbatan 17 % ga ortgan. 2012-yilida mashina va uskunalari jami asosiy vositalarning 44,5 foizni tashkil etib, bu ko`rsatkich 2013-yilda 44,6 foizni tashkil qilgan.

2013-yilda asosiy vositalardan mashina va uskunalarning qiymati 23 157 052 ming so`mga ko`paygan. Asosiy vositalar tarkibining salmog`ida deyarli o`zgarishlar kuzatilmagan. Asosiy vositalar tarkibining barchasida o`shish kuzatilgan. Xulosa qilish mumkinki, joriy yilda mashina va jihozlar qiymatining ko`payganligi korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishiga ancha yordam bergan, sababi, mashina va uskunalari to`g`ridan – to`g`ri ishlab chiqarishda qatnashadigan vositalar qatoriga kiradi.

Umuman olganda korxonada asosiy vositalarning dinamik o`shishi kuzatilgan bo`lib, bu korxonada asosiy vositalarning bosqichma–bosqich yangilanayotganligidan dalolat beradi.

Asosiy vositalarni aktiv va passiv fondlarga tarkiblashda asosiy jihat ularning mahsulot ishlab chiqarishdagi bevosita ishtirokiga qaratiladi. Aktiv asosiy vositalar deb mahsulot ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita qatnashuvchi asosiy vositalarga aytiladi.

Ishlab chiqarish uchun sharoit yaratib beruvchi asosiy vositalar esa passiv asosiy fondlar sifatida qaralib, ularning tarkibiga bevosita binolar, inshootlar, yerlar (qishloq xo`jaligi korxonalaridan tashqari) qiymati va h.k. kiritiladi.

Tahlil etishda jami asosiy vositalar tarkibida ularning salmoq darajalariga baho beriladi va o`zgarishlari o`rganila

### 2.2.3-jadval

#### «Farg`onaazot» OAJining aktiv va passiv asosiy vositalarining tahlili

Ko`rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		Farqi, (+)	
	Summa, ming so`m	Salmog`i, % dagi	Summa, ming so`m	Salmog`i, % dagi	Summadagi, ming so`mda	Salmog`i% dagi
1	2	3	4	5	6	7
1	2	3	4	5	6	7

Jami asosiy vositalar	305 569 002	100,0	356 805 511	100,0	+51 236 509	
Shu jumladan:		64	226 571 500	63,5	+31 007 339	-0,5
-aktiv asosiy vositalar	195 564 161					
-passiv asosiy vositalar	110 004 841	36	130 234 011	36,5	+20 229 170	+0,5

Biz tahlil qilayotgan «Farg`onaazot» OAJida 2013-yilda jami 305 569 002 ming so`mlik asosiy vositasi bo`lib, shundan, 63,5 % aktiv asosiy vositalar va qolgan 36,5 % passiv asosiy vositalar bo`lib hisoblanadi. 2013-yilda o`tgan yilga nisbatan bevosita ishlab chiqarishda ishtirok etadigan, ya`ni aktiv asosiy vositalar salmog`i 0,5 % ga pasayganligini , bunga mos ravishda passiv asosiy vositalar salmog`i esa 0,5 % ga ortganligini ko`rishimiz mumkin va buni salbiy holat sifatida baholaymiz. Asosiy vositalarning o`tgan yilga nisbatan mutloq o`zgarishi +51 236 509 ming so`mni yoki 14,4 foizni ( $51\,236\,509/356\,805\,511 * 100$ ) tashkil etgan. Tahlil etishda jami asosiy vositalar tarkibida ularning salmoq darajalariga baho beriladi va o`zgarishlari o`rganiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta`minlanganligini o`rganish bilan bir qatorda, ularning texnik holatiga ham baho berib boriladi. Odatda asosiy vositalar tarkibida yil davomida o`zgarishlar ro`y beradi. Yangi asosiy vositalarning kirimi tufayli, asosiy vositalar ortib boradi. Eskirgan asosiy vositalarni ishlab chiqarishdan olib tashlash tufayli asosiy vositalar kamayishi mumkin. Bunday tabiiy holatlarning ro`y berishi natijasida asosiy vositalarning texnik holatini tahlil etishimizni taqozo etadi. Asosiy vositalarning texnik holatini ifodalovchi ko`rsatkichlar bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

- asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi;
- asosiy vositalarning eskirish darajasi;
- asosiy vositalarning yangilanish darajasi.

Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi foiz ko`rinishida quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\frac{\text{asosiy vositalarning qoldiq qiymati}}{\text{asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati}} * 100$$

Asosiy vositalarning eskirish darajasi foiz ko'rinishida quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\frac{\text{asosiy vositalarning eskirish qiymati}}{\text{asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati}} * 100$$

Asosiy vositalarning yaroqlilik va eskirish koeffitsiyentlari yig'indisi koeffitsiyentda 1,0 ga, foizda 100 teng bo'ladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlariga qarab, ularning texnik holatiga baho beriladi va ularni tartiblash bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Asosiy vositalarning holatini o'rganishda, korxonada amortizatsiya siyosatiga, asosiy vositalarning ma'naviy eskirganlik darajasiga, foydalanishdan olib tashlangan va konservatsiya qilingan asosiy vositalar holatiga muhim e'tibor qaratiladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlarini ularning har bir turi va jami bo'yicha o'rganiladi. Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar 1-shakl «Buxgalteriya balansi» va 3-shakl «Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi» hisobot shakllaridan olinadi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari ularning harakat ko'rsatkichlari bilan to'ldiriladi.

#### 2.2.4.-jadval

#### “Farg'onaazot”OAJ ning asosiy vositalari texnik holatining tahlili

Asosiy vositalar	Boshlang'ich qiymati, ming so'm	Eskirish qiymati, ming so'm	Qoldiq qiymati, ming so'm	Eskirish darajasi,%	Yaroqlilik darajasi,%
1	2	3	4	5	6
2012	335 680 075	109 434 270	226 245 805	32,6	67,4
1	2	3	4	5	6
2013	356 805 511	124 872 705	231 932 806	35	65

Farqi, (+,-)	+21 125 436	+15 438 435	+5 687 001	+2,4	-2,4
--------------	-------------	-------------	------------	------	------

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, 2013-yilda asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi o`tgan yilga nisbatan 2,4 foizga kamayib ketgan bo`lib, eskirish darajasi ham joriy yilda 2,4 foizni tashkil etgan.

Korxonada asosiy vositalarning texnik holati salbiy tomonga o`zgargan bo`lsada, asosiy vositalarning texnik holatini qoniqarli deb baholash mumkin. Chunki asosiy vositalarning bir tomondan eskirish jarayoni yuz berayotgan bo`lsada, ikkinchi tomondan yangilanish jarayoni ham davom etmoqda, bunga asosiy vositalar boshlang`ich qiymatining o`tgan yilga nisbatan 21 125 436 ming so`mga ko`payganligi misol bo`la oladi.

Asosiy vositalarning holat ko`rsatkichlari ularning harakat ko`rsatkichlarini o`rganish asosida to`ldiriladi.

Asosiy vositalarning harakat ko`rsatkichlariga ularning yangilanishi va chiqib ketish koeffitsiyentlari kiritiladi. Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti joriy davrda yangidan kiritilgan asosiy vositalar qiymatini asosiy vositalarning yil oxiriga bo`lgan qiymatiga bo`lish orqali topiladi. Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsiyenti joriy davrda chiqib ketgan asosiy vositalar qiymatini ularning yil boshiga bo`lgan qiymatiga bo`lish asosida aniqlanadi. Ya`ni ushbu koeffitsiyentlarning aniqlashni quyidagi formulalar orqali ham ifodalashimiz mumkin:

Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\text{Ishlab chiqarishga yangidan qabul qilingan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlang`ich qiymati}} * 100$$

Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsiyenti esa quyidaga tartibda aniqlanadi:

$$\frac{\text{Joriy davrda chiqib ketgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning yil boshiga bo`lgan qiymati}} * 100$$

Bu tarkiblashni asosiy vositalarning jami qatori va har bitta tarkibi bo`yicha berib o`tish mumkin. Tahlil jarayonlarida asosiy vositalarning yangilanish va ishlab

chiqarishdan olib tashlash sabablariga ham e`tibor beriladi. Bunda korxonaning asosiy vositalarini yangilash manbalari bo`lib:

- kapital qo`yilmalar va investitsiyalar;
- xususiy kapitalning o`shishi;
- uzoq muddatli kreditlar va qarzlilar;
- maqsadli moliyalash va subsidiyalar;
- tekinga olingan asosiy vositalar;
- grantlar va boshqa manbalar hisoblanadi.

Asosiy vositalarni ishlab chiqarishdan olib tashlash sabablariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- asosiy vositalarning ma`naviy eskirishi;
- asosiy vositalarning jismoniy eskirishi va foydalanish uchun yaroqsiz holatga kelishi;
- asosiy vositalarning ortiqchaligi;
- asosiy vositalarni sotish;
- o`g`irliklar, yo`qotishlar va boshqa chiqimlar.

### 2.2.5-jadval

#### «Farg`onaazot» OAJida asosiy vositalarning harakat ko`rsatkichlari tahlili (qoldiq qiymatida)

Asosiy vositalar	Asosiy vositalar yil boshiga qoldig`i	Yangidan qabul qilingan asosiy vositalar	Chiqim qilingan asosiy vositalar	Asosiy vositalar yil oxiriga qoldig`i	Yangilanish koeff.	Chiqib ketish koeff.
1	2	3	4	5	6	7
1	2	3	4	5	6	7
2012 yil	124 570 303	38 980 471	2 034 573	183 607 671	21,8	1,6
2013 yil	183 607 671	43 604 587	2 571 645	224 640 613	19,4	1,4
Farqi (+,-)	+59 037 368	+4 624 116	+537 072	+41 032 942	-2,4	-0,2

Biz tahlil qilayotgan «Farg`onaazot» OAJda asosiy vositalarning harakat ko`rsatkichlari o`zgarishini tahlili shuni ko`rsatadiki, joriy davrda asosiy vositalarning yangilanish darajasi oldingi yilga nisbatan 2,4 koeffitsiyentga kamaygan. Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning o`tgan yilga nisbatan o`zgarishi ham +0,2 koeffitsiyentga kamaygan. Umuman olganda korxonadagi asosiy vositalarning yangilanish darajasini o`tgan yilga nisbatan kamayganligi salbiy holatdir. Demak, korxonada ma`muriyati eskirgan asosiy vositalarini yangilash bo`yicha amaliy choralar ko`rmagan. Fan-texnika taraqqiyoti rivojlanib borayotgan bugungi kunda korxonada asosiy vositalarining to`liq bir marta yangilanish davri 3—4 yildan ortib ketmasligi lozim bo`ladi. Bunday natijalarga erishish uchun esa korxonada o`z asosiy vositalarining 20—25 foizini har yili yangilab borishi lozim bo`ladi.

Bugungi kunda korxonadagi asosiy vositalarning texnik holati va harakat ko`rsatkichlarini tahlil qilib borish bilan bir qatorda, korxonaning asosiy vositalari bilan ta`minlanganligi darajasini hamda hodimlarning asosiy vositalari bilan qurollanganligi darajasini ham tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Korxonada (firma) ning asosiy vositalari bilan ta`minlanganlik yoki qurollanganlik darajasi deb, ishlab chiqarishning me`yor darajasida mehnat vositalari bilan ta`minlanganligiga aytiladi.

Avvalo, korxonada (firma) ning mehnat vositalari bilan ta`minlanganligida quyidagi jihatlarni farqlash lozim:

- o`ziga tegishli bo`lgan mehnat vositalari bilan ta`minlanganligi;
- ijaraga olingan mehnat vositalari hisobiga ta`minlanganligi.

Demak, korxonada har ikkala holatda ham asosiy vositalari bilan ta`minlanganlikning me`yor ko`rsatkichlariga ega bo`lishi mumkin.

Asosiy vositalari bilan ta`minlanganlik tahlilida korxonada (firma) da asosiy vositalarning rejaga va o`tgan yillarga nisbatan mutlaq va nisbiy o`zgarishlariga baho beriladi.

Asosiy vositalar bilan qurollanganlik ko'rsatkichlari sifatida bitta ishchiga to'g'ri keladigan mehnat vositalari, bir ish o'rniga to'g'ri keladigan asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajasi aniqlanadi. Asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajasi ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish asosida to'ldiriladi. Ya'ni, korxonada faoliyatiga faqat miqdor ko'rsatkichlar orqaligina emas balki sifat ko'rsatkichlarini ham o'rganish asosida baho beriladi.

Korxonada asosiy vositalar qiymati 2013-yilda 2012-yilga nisbatan 41 032 942 ming so'mga oshgan yoki 122,3 foizni tashkil etgan, shu davr ichida asosiy vositalar faol qismining qiymati 37 659 405 ming so'mga oshgan. Buni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

### 2.2.6-jadval

#### «Farg'onaazot» OAJining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi va qurollanganligining tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	2012	2013	Farqi (+,-)	%dagi
	1	2	3	4	5
1	Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'mda	183 607 671	224 640 613	+41 032 942	122,3
2	Asosiy vositalar faol qismining qiymati ming. so'mda	177 762 895	215 422 299	+37 659 405	121,2
3	Sotilgan tovar mahsulotlari , ming so'm	193 720 481	287 308 764	+93 588 283	148,3
4	Xodimlar soni	7153	7297	+144	102
	Shu jumladan				
	Ishchilar	6024	6129	+105	101,7
	1	2	3	4	5

<b>5</b>	1 so`m asos. vosita. hisobiga tovar mahs. hajmi so`m his.	1,05	1,29	+0,24	122,9
<b>6</b>	1 so`m asos vosita. faol qis. to`g`ri kel. tov. mahs. hajmi so`m.	1,08	1,33	+0,25	123,1
<b>7</b>	Xodimlar. asos. vos. bilan qurollan. darajasi, ming so`m  Shu jumladan	25 668,6	30 785,3	+5 116,7	120
	Ishchilar	30 479,4	36 652,1	+6 172,7	120,3
<b>8</b>	Xodim. asos. vos. faol. qismi bilan ta`m. darajasi, ming so`m.  Shu jumladan	24 851,5	29 522	+4 670,5	118,8
	Ishchilar	29 509,1	35 148	+5 638,9	119,1

1 so`mlik asosiy vositalar hisobiga o`tgan yilgi 1,05 so`m o`rniga 1,29 so`mlik mahsulot yaratilgan, faol qismi hisobiga esa 1,08 so`m o`rniga 1,33 so`mlik mahsulot yaratilgan. Shuning bilan korxonada mehnat unumdorligi oshganligini ko`rishimiz mumkin.

Xodimlarning asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi 25 668,6 ming so`mdan 30 785,3 ming so`mga yoki 5 116,7 ming so`mga oshgan, faol qismi bilan qurollanganlik darajasi esa 4 670,5 ming so`mga oshgan. Ishchilarning shu davrda asosiy vositalar bilan ta`minlanganlik darajasi 6 172,7 ming so`mga, faol qismi bilan ta`minlash darajasi 4 670,5 ming so`mga ko`paygan. Ammo bu tahlil korxonada faoliyatiga baho berish uchun yetarli emas, chunki asosiy vositalardan foydalanish samardorligi darajasidan umumiy ishlab chiqarish samardorligi kelib chiqadi.

Asosiy vositalardan qanchalik samarali foydalanilsa, shunchalik ko`p mahsulot ishlab chiqariladi, uning tannarxi arzonlashadi, mehnat samardorligi, foyda va rentabellik shunchalik yuqori bo`ladi.

Shu sababli korxonada asosiy vositalardan foydalanish samardorligini darajasi chuqur tahlilni talab etadi. Bu tahlilni korxonaning quyidagi ma`lumotlari asosida amalga oshiramiz.

**2.2.7 – jadval.**

**“Farg`onaazot” OAJda asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi darajasining tahlili**

T/r	Ko`rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	O`zgarishlar	
				Mutloq (+ : -)	% his.
1	Tovar mahsulotlari, ming so`m.	206 568 217	294 587 361	+88 019 144	142,6
2	Faol asosiy vositalar o`rtacha yil. qiymati, ming so`m.	177 762 895	215 422 299	+37 659 405	121,2
3	Ishchilar soni, kishi	7153	7297	+144	102
4	Fond samardorligi so`m	1,16	1,37	+0,21	118,1
5	Fond bilan qurollanish darajasi, ming so`m	24 851,5	29 522	+4 670.5	118,8

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, hisobot yilida tovar mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o`tgan yilga nisbatan 142,6 foizga bajarilgan yoki 88 019 144 ming so`mga ortiq bajarilgan. Bunday ko`rsatkichlarga erishishga albatta fond samaradorligini 1,37 so`mni tashkil qilganligi ham ijobiy ta`sir ko`rsatgan.

Shu bilan birga yil davomida ishchilar soni 7153 kishidan 7297 kishiga yoki 102 foizga ko`payganligi uchun ishchilarning fond bilan qurollanish darajasi 118,8 foizni tashkil qilgan. Bularning hammasi korxonada asosiy vositalarni yaxshilash jarayoni davom etayotganligidan va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishning yaxshi imkoniyatlari mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Ammo asosiy vositalar samadorligining tahlili korxonadagi haqiqiy iqtisodiy ahvolga baho berish uchun yetarli bo`la olmaydi. Buning uchun korxonaning aylanma mablag`laridan foydalanish darajasi ham chuqur tahlil qilinishi kerak. Ma`lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning asosiy vazifalaridan biri barcha resurslarni tejash tamoyiliga amal qilgan holda ishlab chiqarishni jadallashtirish hisoblanadi. Demak, aylanma mablag`lardan foydalanishni yaxshilash va tejankorligining iqtisodiy samaradorligi korxonaning barcha ishlab chiqarish va xo`jalik faoliyatiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Korxonada aylanma mablag`lardan foydalanish darajasini tahlil qilishda, ularni ifodalovchi ko`rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Aylanma mablag`larni ifodalovchi ko`rsatkichlar tizimi quyidagilardan tashkil topadi:

1. Aylanma mablag`lar holatini ifodalovchi ko`rsatkichlar;
2. Aylanma mablag`lar bilan ta`minlanganlikni ifodalovchi ko`rsatkichlar.
3. Aylanma mablag`lar samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkichlar.

**2.2.8 –jadval.**

**2013 yilda “Farg`onaazot” OAJ da aylanma mablag`lar holatini  
ifodalovchi ko`rsatkichlar tahlili**

t/r	Ko`rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	O`zgarishlar	
				Mutloq (+ : -)	% his.
	1	2	3	4	5
1	Barcha aktivlar, ming so`m.	580 100 197	646 129 929	+66 029 732	111,4
2	Aylanma mablag`lar, ming so`m.	310 003 804	371 942 422	+61 938 618	120
3	Pul mablag`lari, ming so`m	2 407 274	9 688 479	+7 281 205	402,5
4	Tovar-moddiy zaxiralar, ming so`m	105 067 111	128 567 735	+23 500 624	122,4
5	Debitorlar, ming so`m	135 934 970	125 386 895	-10 548 075	92,2
6	Aylanma mablag`larning umumiy mablag`lardagi hissasi,	53,4	57,6	4,2	107,9

	% his.				
7	Aylanma mablag`lar tarkibida pul mablag`larining ulushi, % his.	0,8	2,6	+1,8	325
	1	2	3	4	5
8	Aylanma mablag`lar tarkibida zaxiralar ulushi, % his.	33,9	34,6	+0,7	102,1
9	Aylanma mablag`lar tarkibida debitorlar hissasi, % his.	43,8	33,7	-10,1	76,9

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, korxonada barcha aktivlar yil boshidagi 580 100 197 ming so`mdan yil oxiriga 646 129 929 ming so`mga yoki 66 029 732 ming so`mga oshgan, bu 111,4 foiz demakdir. Bunday o`shish aylanma mablag`larida ham, pul mablag`larida ham, tovar moddiy zahiralarida ham sodir bo`lgan. Faqatgina, debitor mablag`larda yil boshiga nisbatan 10 548 075 ming so`mga kamayishi kuzatilgan.

Debitor mablag`lari summasining kamayishi natijasida aylanma mablag`lardagi hissasi yil boshidagi 43,8 foizdan 33,7 foizga kamaygan. Pul mablag`larining 7 281 205 ming so`mga ortishiga qaramasdan ularning aylanma mablag`lar tarkibidagi ulushi 0,8 foiz o`rniga 2,6 foizni tashkil etgan.

Haqiqiy ahvolni aniqlash uchun tahlilni yanada chuqurlashtirish asosida aylanma mablag`lar samaradorligi ko`rsatkichlarini tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Bu tahlilni biz "Farg`onaazot" OAJ ning quyidagi ma`lumotlari asosida amalga oshiramiz.

**2.2.9–jadval.**

**“Farg`onaazot” OAJ da aylanma mablag`lar samaradorligi  
ko`rsatkichlarining tahlili**

t/r	Ko`rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	O`zgarishlar	
				Mutloq (+ : -)	% his.

1	Mahsulotlarni sotishdan sof tushum, ming so`m.	193 720 481	287 308 764	+93 588 283	148,3
2	Aylanma mablag`lar, ming so`m.	310 003 804	371 942 422	+61 938 618	120
3	Aylanma mablag`larning aylanuvchanligi, kun	576,1	466	-110,1	80,9
	1	2	3	4	5
4	Aylanma mablag`larning aylanish davri, marta	0,62	0,77	+0,15	124,2

Raqamlardan ko`rinib turibdiki, aylanma mablag`larning aylanuvchanligi korxonada 2012- yili 576,1 kuni tashkil etib, uning aylanish koeffitsiyenti bir yilda 0,62 martani tashkil etgan. Bu ko`rsatkich 2013-yilda 466 kuni va 0,77 martani tashkil etgan. Bu aylanuvchanlik o`tgan yilga nisbatan 110 kunga kamayib, aylanish koeffitsiyenti esa 0,15 martaga oshganligini ko`rsatadi.

Demak, korxonada aylanma mablag`larning aylanuvchanligi va aylanish koeffitsiyenti bir muncha oshgan. Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar natijasida xulosa chiqarish mumkinki, yanada korxonada aylanma mablag`lar samaradorligini oshirishning keng imkoniyatlari va rezervlari mavjud.

Korxonalarining xom ashyo va materiallar bilan ta`minlanganligi va ulardan foydalanish darajasi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning eng muhim yo`nalishlaridan biri bo`lib hisoblanadi.

Korxonalarda materiallardan foydalanishni tahlil etish va bu asosda ularni iqtisod qilishning ichki ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Materiallardan foydalanish darajasini tahlil qilish uchun kerak bo`ladigan ma`lumotlarga xom ashyo va materiallar sarfining tasdiqlangan me`yorlari, xom ashyodan mahsulot chiqish me`yorlari, “Korxonada xarajatlari to`g`risida” gi 5C shakldagi hisobot, “Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish to`g`risida” gi 1S shakldagi hisobot va boshqalar kiradi.

Tahlil uchun quyidagi jadvaldan foydalanamiz:

*2.2.10-jadval*

### **Korxonada material resurslardan foydalanish tahlili**

t/r	Ko`rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	Farqi(+,-)	
				Mutlaq	%
	1	2	3	4	5
	1	2	3	4	5
1	Tovar mahsulot hajmi, ming so`m	206 568 217	294 587 361	+88 019 144	142,6
2	Material xarajatlar, ming so`m	103 284 108	150 748 527	+47 464 419	146
3	Material qaytimi, so`m (1:2)	2	1,95	-0,05	97,5
4	Material sig`imi, so`m (2:1)	0,5	0,51	+0,01	102
5	Tovar mahsulot tannarxi	147 548 621	201 026 751	+53 478 130	136,2
6	Material xarajatlarning mahsulot tannarxidagi ulushi (2:5)	0,7	0,74	+0,04	105,7

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, korxonada 2013-yilda tovar mahsulot hajmi 42,6 % ga oshgani holda, material xarajatlari 46 % ga oshirilgan. Buning natijasida material qaytimi 2012-yilda 2 so`mni 2013-yilda 1,95 so`mni tashkil etib, 0,05 so`mga yoki 2,5 % ga kamaygan. Ana shu davr ichida material sig`imi esa 0,01 so`mga yoki 2 % ga oshgan.

2013-yilda material sig`imining 0,01 so`mga oshirilgani hisobiga mahsulot hajmining kamayishi:

$$0,01 * 103\,284\,108 / 0,5 = 2\,065\,682,2$$

Endi material qaytimi va material xarajatlarning tovar mahsulot ishlab chiqarish hajmining o`zgarishiga ta`sirini aniqlaymiz.

Ma`lumki, 2013-yilda tovar mahsulot hajmi 2012-yildagiga nisbatan 88 019 144 ming so`mga oshgan. Ushbu natijaga material qaytimining ta`sirini aniqlaymiz:

$$\Delta \dot{v} = (1,95-2) * 103\,284\,108 = -5\,164\,205,4 \text{ ming so`m}$$

Material xarajatlarining ta`siri:

$$\Delta \dot{v} = (150\,748\,527 - 103\,284\,108) * 1,95 = +92\,555\,617$$

Ikkala omilning ta`siri:

$$92\,555\,617 - 5\,164\,205,4 = 87\,391\,411,6 \text{ ming so`m}$$

Demak, korxonada material xarajatlardan foydalanish darajasining (intensiv omil) mahsulot ishlab chiqarish hajmi 5 164 205,4 ming so`mga yoki 17,5 % ga kamatirib yuborilgan.  $(5\,164\,205,4 / 294\,587\,361 * 100)$

Ushbu natija 2013-yildagi mahsulot hajmi bilan 2012- yildagi uning kattaligi orasidagi farqqa deyarli teng.

Demak, korxonada materiallardan foydalanish darajasi 2013-yilda 2012-yilga nisbatan birmuncha yomonlashgan. Buni tovar mahsulot tannarxi tarkibida material xarajatlar ulushining oshganligida ham ko`rishimiz mumkin.

Agar 2012-yilda material xarajatlarining mahsulot tannarxidagi ulushi 0,7 ni tashkil etgan bo`lsa 2013-yilda bu ulush 0,74 ga teng bo`lib, 0,04 ga oshirilgan.

### **2.3. Moddiy resurslar samardorligining korxonada moliyaviy natijalariga ta`sirining tahlili**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk shaklidan qat`iy nazar barcha korxonalar mahsulotlarni eng avvalo sotish uchun ishlab chiqarishni tashkil etadilar. Korxonada ishlab chiqarishni ko`zda tutgan mahsulotlar hajmi iste`molchilarning ko`lami va korxonada ichki imkoniyatlari bilan uzviy bog`liq bo`ladi.

Ishlab chiqarilgan tovar mahsulotlari uchun ma`lum miqdorda moddiy, mehnat va pul mablag`lari sarflangan. Ma`lumki bu xarajatlar mahsulot tannarxini tashkil etadi.

Mahsulot tannarxi – korxonaga mahsulot ishlab chiqarish va sotish qanchaga tushganligini belgilaydigan asosiy ko`rsatkichlardan biridir.

Tannarx mehnat va moddiy resurslardan foydalanishning darajasi va sifatini, ya'ni texnikani joriy qilish natijalarini, ishlab chiqarishning maromiyligini, moddiy va pul mablag`larini sarflashdagi iqtisod va tejamkorlikni ifodalaydi. Shu sababli ham korxonada faoliyatini tahlil qilishda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini o`rganishning ahamiyati kattadir.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini tahlil qilishdan maqsad hisobot yilidagi xarajatlarning rejadan chetlanish darajasini aniqlash, tannarx elementlari bo`yicha o`zgarishlarni aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Bu tahlilni korxonaning quyidagi ma`lumotlari asosida amalga oshiramiz.

### 2.3.1. –jadval.

#### Korxonada tannarx bo`yicha o`zgarishlar tahlili

t/r	Ko`rsatkichlar	2012 Yil	2013 Yil	O`zgarishlar	
				Mutloq + –	% his.
1	2	3	4	5	6
1	2	3	4	5	6
1.	Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi, ming so`m.	206 568 217	294 587 361	+88 019 144	142,6
2.	Mahsulot tannarxi, ming so`m his.	147 548 621	201 026 751	+53 478 130	136,2
3.	Tannarxning tovar mahsulotlari hajmiga nisbati, % h.	71,4	68,2	-3,2	95,5

Keltirilgan ma`lumotlarga ko`ra, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi 88 019 144 ming so`mga ko`payganligi holda, mahsulot tannarxi 53 478 130 ming so`mga oshgan. Tannarxning mahsulotlar hajmiga nisbati o`tgan yilgi 71,4 foiz o`rniga hisobot yilida 68,2 foizni tashkil etgan. Albatta bu holat korxonada faoliyati natijalariga o`zining ijobiy ta`sirini ko`rsatgan.

Mahsulot tannarxini ifodalovchi ko`rsatkichlardan eng muhimi 1 so`mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar hisoblanadi, sababi bu ko`rsatkich orqali qilingan xarajatlarning samaradorligini aniqlash mumkin bo`ladi.

“Farg`onaazot” OAJ da 1 so`mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar o`zgarishining tahlilini korxonaning quyidagi ma`lumotlari asosida amalga oshiramiz.

### 2.3.2 –jadval.

#### Korxonada 1 so`mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar o`zgarishining tahlili

t/r	Ko`rsatkichlar	2012 Yil	2013 Yil	O`zgarishlar	
				Mutloq + –	% his.
1	2	3	4	5	6
1.	Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi, ming so`m.	206 568 217	294 587 361	+88 019 144	142,6
2.	Mahsulot tannarxi, ming so`m his.	147 548 621	201 026 751	+53 478 130	136,2
3.	Tannarxning tovar mahsulotlari hajmiga nisbati, % h.	0,71	0,68	-0,03	95,5

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, korxonada mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hajmi hisobot yilida o`tgan yilga nisbatan 88 019 144 ming so`m ko`paygani holda mahsulot tannarxi 53 478 130 ming so`mga oshgan. Bunday o`shish 1 so`mlik tovar mahsulotlari xarajatlarning kamayishi hisobiga yuz bergan. Natijada 1so`mlik tovar mahsulotlari xarajatlari o`tgan yilgi 0,71 so`mdan hisobot yilida 0,68

so`mga kamaygan, bu esa o`z navbatida korxonada foyda summasining ko`payishiga ijobiy ta`sir ko`rsatgan.

Shundan kelib chiqqan holda aytamizki, foyda – korxonada xo`jalik faoliyatining muhim iqtisodiy ko`rsatkichlaridan biridir. Foyda korxonada tomonidan uning ishlab chiqarish faoliyati natijasida vujudga kelgan sof daromadi miqdorini ifodalaydi. Ammo foydaning hajmi butun korxonada ish faoliyatining samaradorligini to`la tarzda ifodalaydi.

Buning uchun yana bir ko`rsatkich rentabellik darajasidan ham foydalaniladi. Rentabellik – xo`jalik faoliyatining foydasi va u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishning daromadlilikini ifodalaydi. Rentabellik korxonada yillik foydasining, uning foizda ifodalangan asosiy ishlab chiqarish fondlari va aylanma mablag`larning o`rtacha yillik qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi.

Demak, bulardan shunday xulosa kelib chiqadiki, foyda va rentabellik ko`rsatkichlari korxonada faoliyatini sifat jihatidan umumlashtiruvchi ko`rsatkich bo`lib hisoblanadi. Foyda rejasini bajarilishini tahlil qilishning asosiy vazifasiga korxonaning yillik ishlab chiqarish faoliyati natijalarini baholash va ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish kiradi. Bu tahlilni korxonaning quyidagi ko`rsatkichlari asosida amalga oshiramiz.

### 2.3.3 –jadval.

#### Korxonada mahsulotlar tannarxi, foyda va rentabellik darajasining tahlili

t/r	Ko`rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	O`zgarishlar	
				Mutloq (+ : -)	% his.
	1	2	3	4	5
1	Mahsulot sotishdan tushum, ming so`m.	206 568 217	294 587 361	+88 019 144	142,6
2	Mahsulot tannarxi, ming so`m	147 548 621	201 026 751	+53 478 130	136,2
3	Foyda summasi, (1-2), ming so`m.	59 019 596	93 560 610	+34 541 014	158,5

4	Mahsulot rentabelligi, % his.	40	46,5	+6,5	116,25
---	-------------------------------	----	------	------	--------

Keltirilgan raqamlardan ko`rinib turibdiki, yuqorida aytilganidek 1 so`mlik tovar mahsulotlari xarajatlarining kamayishi korxonaning yalpi foyda summasiga ijobiy ta`sir ko`rsatgan, natijada yalpi foyda summasi o`tgan yili 59 019 596 ming so`mni tashkil etgani holda hisobot yilida 34 541 014 ming so`mga ko`paygan va 93 560 610 ming so`mni tashkil etgan. Bu natija o`z navbatida korxonaning mahsulot rentabelligi darajasiga ijobiy ta`sir ko`rsatgan va korxonada mahsulot rentabelligi darajasi o`tgan yildagi 40 foizdan 46,5 foizga ko`tarilgan

Bizga ma`lumki rentabellik darajasi mahsulot rentabelligiga va ishlab chiqarish rentabelligiga bo`linadi. Yuqoridagi tahlilda biz mahsulot rentabelligi darajasini aniqladik va uni aniqlashda quyidagi formuladan foydalandik:

$$R_m = \frac{F}{T} * 100\%$$

Bu yerda:

$R_m$  – mahsulot rentabelligi;

F – foyda;

T – mahsulot tannarxini bildiradi.

BMI mavzusi moddiy resurslar samaradorligiga bag`ishlanganligi sababli korxonada ishlab chiqarish rentabelligi darajasini ham aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sababi ishlab chiqarish rentabelligi korxonada moddiy resurslardan samarali foydalanish darajasini ko`rsatadi. Ishlab chiqarish rentabelligi darajasini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$R_{i.ch} = \frac{F}{Av.k + A.m.q} * 100\%$$

Bu yerda:

$R_{i.ch}$  – ishlab chiqarish rentabelligi;

F – foyda summasi;

Av.q – asosiy ishlab chiqarish vositalarining qiymati;

A.m.q – aylanma mablag`lar qiymati.

Shu formulaga asoslanib quyidagi ma`lumotlar asosida korxonaning ishlab chiqarish rentabelligi darajasining tahlilini amalga oshiramiz.

**2.3.4 –jadval.**

**Korxonadagi ishlab chiqarish rentabelligi darajasining tahlili**

t/r	Ko`rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	O`zgarishlar	
				Mutloq (+ : -)	% his.
	1	2	3	4	5
1	Yalpi foyda, ming so`m.	59 019 596	93 560 610	+34 541 014	158,5
2	Asosiy vositalarning o`rtacha yillik qiymati , ming so`m his.	183 607 671	224 640 613	+41 032 942	122,3
3	Aylanma mablag`larning o`rtacha yillik qiymati , ming so`m his.	310 003 804	371 942 422	+61 938 618	120
	1	2	3	4	5
4	Rentabellik darajasi, % his.	12	15,6	+3,6	130

Keltirilgan raqamlardan xulosa qilish mumkinki, “Farg`onaazot” OAJda asosiy vositalarning o`rtacha yillik qiymati hisobot yilida o`tgan yilga nisbatan 41 032 942 ming so`mga ko`paygan, aylanma mablag`larning o`rtacha yillik qiymati shu davr ichida 61 938 618 ming so`mga oshgan, natijada ishlab chiqarish rentabelligi darajasi o`tgan yilgi 12 foizni tashkil etgan bo`lsa, bu ko`rsatkich hisobot yilida 15,6 foizni tashkil etgan. Demak, korxonada ishlab chiqarish rentabelligining oshishishiga birinchidan, yalpi foyda summasining ko`payishi o`z ta`sirini ko`rsatgan.

### **3-BOB. KORXONADA MODDIY RESURLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIY YO`NALISHLARI**

#### **3.1. Moddiy resurslardan samarali foydalanishning omillari va imkoniyatlari**

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining bir qator asarlarida hozirgi taraqqiyot darajasida moddiy resursdan samarali foydalanishga va komplekslik tamoyiliga e'tibor berishni uqtirmoqda. Har bir xom ashyo turidan yuqori darajada samara bilan foydalanish iqtisodiyotimizning rivojini belgilaydigan muhim omillardan biridir. Shu sababli sanoat korxonalarida moddiy resurslardan samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilash hozirgi vaqtda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini faoliyatida moddiy resurslardan foydalanish darajasi korxonaning faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Korxonalarining rivojlanishini ta'minlash va yashab qolishiga erishish uchun moddiy resurslardan foydalanish darajasini muntazam tarzda tahlil qilish va takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash lozim.

Moddiy resurslardan samarali foydalanish ulardan o'ylab, asoslangan holda, maqsadga muvofiq foydalanishni nazarda tutadi. Moddiy resurslardan samarali


foydalanish ulardan foydalanishning sifat tavsifini ko'rsatadi. Moddiy resurslardan samarali foydalanish uzluksiz jarayon hisoblanishi lozim va ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan birgalikda rivojlanib borishi lozim. Moddiy resurslarni tejash uchun ularni tejashning aniq manbalari imkoniyatlarini baholash lozim. Moddiy resurslarni tejash manbalari ularning qandaydir qismini tejashga imkon berishi lozim. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- foydalaniladigan mashinalar, mexanizm va moslamalar miqdorini kamaytirish;
- kam chiqindili texnologiyadan foydalanish;
- moddiy resurslarning tejimli turlarini qo'llash.

Turli manbalardan foydalanish majmuasi moddiy resurslar tejimkorligining yo'nalishlari hisoblanadi. Moddiy resurslardan tejimli foydalanish yo'nalishlari qanday tadbirlar hisobiga moddiy resurslar sarfini kamayishiga olib borishini ko'rsatadi. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Moddiy resurslar sarfini kamaytirishni rag'batlantirish;
- Moddiy resurslar sarfini orttirib yuborganlik uchun huquqiy yoki ma'muriy javobgarlik;
- Ilg'or tajribani ommalashtirish va x.k.lar.

Moddiy resurslar sarfini kamaytirish uchun ulardan samarali foydalanish yo'nalishlarini tuzish kerak.



### 3.1.1.-rasm. Moddiy resurslardan samarali foydalanish yo'nalishlari

Sanoat korxonalarida foydalanilayotgan moddiy resurslardan samarali tarzda foydalanishni yo'lga qo'yish uchun ularni sifatlirog'i bilan almashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, korxonalarda muhim xom ashyoni sifatlirog'i hamda korxonadagi ishlab chiqarish texnologiyasiga mos turini tanlash ham moddiy resurslardan samaraliroq foydalanishga imkon beradi. Shu bilan birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot sifati ham ortadi, xom ashyo sarfi xarajatlari (bir birlik mahsulotga bo'lgan sarf) kamayishi hisobiga tannarx ham pasayishi mumkin. Sanoat korxonalarida foydalanilayotgan metallardan ishlangan quvurlar o'rniga nisbatan arzonroq, yengilroq va sifatliroq bo'lgan polietilen quvurlardan foydalanish ham mahsulot tannarxini pasayishiga, sifatning yaxshilanishiga olib keladi. Bunday quvurlarning xizmat qilish muddati temir quvurlarga qaraganda bir necha barobar yuqorligi hamda ular narxining bir necha barobar pastligi va foydalanishdagi qulayligi sanoat korxonalarini uchun qo'shimcha samara keltiradi.

Moddiy resurslarni tejab-tergab foydalanishning yana bir muhim yo'nalishi resurslarni tejashni rag'batlantirishdir. Moddiy resurslardan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri bu mehnat resurslaridan foydalanish darajasidir. Agar har bir ish joyida xom ashyo, materiallar, yonilg'i va energiyadan

samarali foydalanishga harakat qilinsa juda katta miqdordagi moddiy resurs tejalishiga erishishimiz mumkin. Har bir ish joyida mavjud resurslardan samarali foydalanish uchun rag'batlantirish tizimini yaratish lozim.

Har bir xodim ish joyida tejab kelayotgan moddiy resurs uchun qandaydir darajada rag'batga ega bo'lsa moddiy manfaatdorlik yuzaga keladi. Shu bilan birgalikda har bir ish joyida yo'l qo'yilgan ortiqcha sarf uchun mas'uliyatni oshirish lozim. Tejamkorlikni samarasiz holatga olib keladigan xo'jalik yuritish elementlarini ham qisqartirish lozim.

Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini yalpi mahsulot va tovar mahsulot ko'rinishlarida o'lchash mahsulotning material sig'imini hisobga olar edi. Endilikda ba'zi bir tarmoqlarda foydalanilayotgan sof mahsulot ko'rsatkichi moddiy resurslar sarfini hisobga olmaydi, chunki u ish haqi, ish haqidan ajratmalar va me'yoriy foydani hisobga oladi xolos. Mahsulotning material sig'imining ortishi yoki kamayishi bu ko'rsatkichga ta'sir qilmaydi. Bu esa korxonalarni moddiy xarajatlar asosida hisoblanadigan material sig'imini orttirishga qiziqishlarini yo'qotadi. Keyingi paytda bu ko'rsatkichdan kam foydalanilmoqda. Imkoni boricha ko'proq tarmoq va korxonalarda bu ko'rsatkichdan foydalanishga o'tishni tavsiya qilamiz. Ushbu ko'rsatkichni mahsulot hajmini aniqlashning asosiy ko'rsatkichi sifatida belgilanishi moddiy resurslardan samarali foydalanishga asos yaratadi.

Ishlab chiqarish korxonalaridagi mukofotlash tizimini to'g'ridan-to'g'ri shu ko'rsatkich bilan, ya'ni moddiy resurslardan foydalanish darajasi bilan bog'lash lozim. Mukofotlash uchun mablag'lar jamlanadigan fondlarni korxonadagi moddiy resurslardan foydalanish darajasiga bog'lash ham katta iqtisodiy samara beradi.

Korxonada ishlayotgan xodimlarga ular tejab qolgan moddiy resurslarning qimmatidan belgilangan foizda rag'batlantirish ham katta samara beradi. Bir vaqtlar ishchilar, ustalar, texnologlar va konstruktorlar, muxandis-texnik xodimlarga ular tejab qolgan energiya, benzin va yonilg'i qiymatining 75 foizigacha mukofot tariqasida berilar edi, qorametallni tejalgan qiymatining 50 foizigacha mukofot qilib berilar edi. Bosmaxonalarda har bir birlik tejab qolingan qog'oz uchun, energetikada yonilg'i uchun yanada kattaroq miqdorda mukofot joriy qilingan edi.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim rezervlaridan biri ishlab chiqarishdagi moddiy-texnika resurslari strukturasi tinmay yaxshilab borishdir. Milliy iqtisodiyotda gurkirab borayotgan fan-texnika taraqqiyoti yangi progressiv va iqtisodiy jihatdan foydali materiallarning salmog'ini muttasil oshirib borishga imkon beradi. Ularning ishlab chiqarishga joriy qilinishi avvalo, marketing biznes rejalarida aks etadi. Ikkilamchi xom ashyo va chiqitlarni ishga solish marketing organlarining faoliyatiga ham bog'liqdir. Ma'lumki, ulardan yaxshi foydalangan taqdirda kamchil materiallarni ancha tejash, yangi quvvatlarni ishga solish uchun qilinadigan kapital xarajatlarni bir muncha kamaytiradi.

Moddiy resurslarning bevosita sexlarda sarf qilinishini muntazam sur'atda qattiq nazorat qilib borishni uyushtirish ham materiallarni tejashning muhim omilidir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday nazoratning eng samarali shakli sexlarni ta'min etishda limit tartibini qo'llanishidir. Bu tartibning mohiyati shundan iboratki, sexga xom ashyo va materiallar faqat belgilangan limitga muvofiq beriladi, agar brak yoki belgilangan normadan oshiq sarf qilinishi tufayli xom ashyo va materiallar tugab qolgunday bo'lsa, keyinchalik sexlar faqat korxonalar rahbarligining ijozati bilan ta'min etiladi.

BMI mavzusini yoritishning tahlil qismidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, moddiy resurslar tarkibida bugungi kunda eng asosiylaridan biri bu asosiy vositalar hisoblanadi. Chunki, keyingi yillarda asosiy vositalar bahosining muntazam oshib borishi va ularga qilinadigan xarajatlarning mahsulot tannarxining asosini tashkil qilayotganligi ham asosiy vositalardan foydalanish samaradorligiga alohida ahamiyat berish zarurligini keltirib chiqarmoqda.

Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy vositalardan samarali foydalanish iqtisodiy imkoniyatlarning muhim vazifasi hisoblanadi. Eng avvalo, asosiy vositalardan samarali foydalanish ularning samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi intensiv va ekstensiv omillardan qanchalik to'liq foydalanilayotganligiga bog'liq. Asosiy vositalardan foydalanishning ekstensiv o'sishi, bir tomondan kalendar davrda

jihozlardan foylanish vaqtini oshirishni taqozo etadi, ikkinchi tomondan jhozlarning umumiy qiymatida ishlayotgan jhozlarning hissasini oshirishni taqozo etadi.

Demak, bundan xulosa shuki, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- Kun mobaynida uskunalarning bekor turib qolishini qisqartirish, ularning smenalik ish koeffitsiyentini oshirish;
- Smena o'rtasida bo'sh turib qolishlarni yo'qotish hisoblanadi;

Buning uchun korxonada kun mobaynida uskunalarning bekor turib qolishlariga yo'l qo'ygan va smena davomiyligidan yomon foydalangan ishchilarni moddiy jihatdan jazolash va samarali ishlagan ishchilarni moddiy rag'batlantirish tavsiya etiladi.

Bulardan tashqari asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri ortiqcha jhozlar miqdorini kamaytirish hisoblanadi, chunki ular vaqt o'tishi bilan ham ma'naviy ham jismoniy jihatdan eskiradi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ko'p jihatdan intensivlikni oshirish bilan bog'liqdir. Buning uchun ishlab chiqarish texnologiyalarini va mehnat qurollarini takomillashtirish, mehnatni ilmiy tashkil etishni va boshqarishni takomillashtirish, ishchilarning malakasini, bilimlarini va ko'nikmalarini oshirish, ishlab chiqarish jarayonidagi nuqsonlarni bartaraf etish zarur.

Bundan tashqari asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri o'rnatilmagan uskunalarni ishlab chiqarishga tezroq jalb etish hisoblanadi.

Biroq uskunalardan foydalanish jarayonining boshqa tomonlari ham bor. Smena orasida kun mobaynida vaqtincha bekor turib qolishlariga yo'l qo'ymaslikdan tashqari uskunalardan haqiqatdan ham ish bilan ta'minlangan vaqtlarida qanchalik darajada samarali foydalanilayotganligini aniqlash samaradorlikni oshirish omillaridan biri hisoblanadi.

Korxonalarda smenalik koeffitsiyentini oshirishga intilish kerak, chunki u qanchalik yuqori bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish ham ortadi.

Uskunalar ishining smenaligini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- ishchi o'rinlarining ixtisoslashganlik darajasini oshirish. Bu ishlab chiqarish seriyaliligini va uskunalarning ish bilan ta'minlanganligini oshiradi;
- ishlarning ritmligini oshirish;
- bekor turib qolishlarni kamaytirish;
- ta'mirlash ishlarini samarali yo'lga qo'yish;
- asosiy va yordamchi ishchilar mehnatini mexanizatsiyalash. Bu qo'shimcha ish kuchini ozod qilish va ularni og'ir yordamchi ishlarga yoki uchinchi smenaga o'tkazish imkonini beradi.

Mehnat vositalari katta qismining bekor turishi ishlab chiqarishning o'stirish imkoniyatlarining qisqarishiga, uskunalarning bekordan – bekor jismonan eskirishiga va uzoq vaqt ishlamasdan saqlanish natijasida ularning yaroqsiz ahvolga kelib qolishiga sabab bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan yaxshi saqlangan uskunalar ham ma'naviy eskirish natijasida jismonan eskirgan uskunalar qatoriga qo'shilib qoladi.

Asosiy vositalardan foydalanishning intensiv o'sishi vaqt birligida uskunalarning ish bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishni taqozo qiladi. Uskunalarning intensiv ish bilan ta'minlanganligini oshirish uchun ishlayotgan mashina va mexanizmlarni modernizatsiyalash, ular ishining optimal rejimini o'rnatish lozim. Texnologik jarayonlarning optimal rejimda ishlashi ishchilar soni va asosiy fondlarni ko'paytirmay turib, mahsulot ishlab chiqarishni oshiradi va mahsulot birligiga sarflanadigan moddiy resurs xarajatlarini kamaytiradi.

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligining tezlashishi hozirgi sharoitda korxonalarining eng asosiy birlamchi vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bozor munosabatlari va deyarli barcha resurslar taqchilligi sharoitida aylanma mablag'lar, birinchi o'rinda moddiy resurslardan ratsional foydalanish va ularni shakllantirish zaxiralarini izlab topish har bir korxonada turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bunda zaxira deganda, moddiy va pul resurslarini yaxshilashning yuzaga kelgan yoki yuzaga kelayotgan, lekin foydalanilmagan (to'liq yoki qisman) imkoniyatlarini tushunish lozim.

Bu zaxiralar kelib chiqishi va foydalanishiga ko'ra xalq xo'jaligiga va tarmoqlarga tegishli yoki tarmoqlararo, ishlab chiqarish ichidagi (zavod, sex va

hokazo) turlariga bo'linadi. Korxonada iqtisodiyotida ichki ishlab chiqarish zahiralari – ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish hamda texnika va texnologiyani takomillashtirish, mahsulotlarning yangi va yanada mukammal turlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash imkoniyatlari, katta ahamiyat kasb etadi. Zaxiralar shuningdek, moddiy resurslarni sarflashni me'yorlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning mehnat sig'imini kamaytirish, mehnatni tashkil qilishning ratsional usullarini qo'llash natijasida ham aniqlanadi. Qisqacha aytganda har bir korxonada moddiy va pul resurslaridan, ya'ni xususiy kapital va boshqa aktivlardan ratsional foydalanish bo'yicha puxta ishlab chiqilgan chora – tadbirlar majmuasiga ega bo'lishi zarur.

Hozirgi sharoitda aylanma mablag'larni tejashning iqtisodiy ahamiyati quyidagicha ifodalanadi:

- xom ashyo, materiallar, yoqilg'i xarajatlarining kamayishi ishlab chiqarish uchun katta iqtisodiy foydani ta'minlaydi. Bu avvalombor, mavjud moddiy resurslar miqdoridan ko'proq tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi;

- moddiy resurslarni tejash, ishlab chiqarishga yangi, tejamliroq materiallarni kiritish takror ishlab chiqarish jarayonida alohida tarmoqlar o'rtasida taraqqiy etgan nisbatlarni belgilashga, sanoat ishlab chiqarishning mukammal tarmoq strukturasi erishishga imkon beradi;

- moddiy resurslarni tejashga intilish yangi texnikani joriy etish va texnologik jarayonlarni mukammallashtirishga turtki beradi;

- moddiy resurslar iste'molidagi tejamkorlik ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilashga va jonli mehnat xarajatlarining tejalishiga ham olib keladi (materiallarni tashish; saqlashga sarflanadigan ish kuchi kamayadi);

- moddiy resurslar tejalishi sanoat mahsuloti tannarxining kamayishiga yordam beradi. Hozirgi vaqtda moddiy xarajatlarning hisobiga barcha ishlab chiqarish xarajatlarining  $\frac{3}{4}$  qismi to'g'ri keladi. Keyinchalik, ishlab chiqarishning texnik darajasi o'sishi bilan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha umumiy xarajatlarda buyumlashgan mehnat ulushi oshib boradi va mehnat predmetlari hamda mehnat

vositalaridan foydalanishni yaxshilash ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlarini tejashning asosiy yo'nalishi bo'lib hisoblanadi;

- mahsulot tannarxining kamayishiga ta'sir qiladigan moddiy resurslar tejamkorligi korxonaning moliyaviy holatiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

### **3.2 “Farg’onaazot” OAJ da moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash tadbirlari va ularning iqtisodiy samaradorligi**

BMIning tahlil qismidan ma'lum bo'ldiki, aylanma mablag'lardan samarali foydalanish korxonada faoliyatini normal ta'minlashda, ishlab chiqarish rentabelligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Afsuski, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida aksariyat ishlab chiqarish korxonalarining hozirda ega bo'lgan o'zlarining moliyaviy resurslari nafaqat kengaytirilgan, hattoki, oddiy takror ishlab chiqarish jarayonini ham to'liq miqdorda ta'minlashga yetmayapti. Korxonalarda zarur moliyaviy resurslarning yo'qligi, to'lovlar intizomi darajasining pastligi o'zaro to'lamasliklarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu oxir – oqibatda xomashyo materiallari yetkazib berishda uzilishlarga sabab bo'lmoqda.

“Farg’onaazot” OAJ korxonasini tahlil qilganimizda shu narsa ma'lum bo'ldiki, material sig'imi 0,5 so'mdan hisobot yilida 0,51 so'mga oshgan, bu esa o'z navbatida korxonada foyda summasining ko'payishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Ya'ni har bir so'm mahsulotga 0,01 so'm ortiq xarajat qilinganligi aniqlangan.

Tejamkorlik rejimini ta'minlash bo'yicha chora – tadbirlar tizimida asosiy o'rinni kam xam ashyo va energiya sarflovchi samarali jihozlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buguni kunda «Farg’onaazot» OAJ da sirka kislotasini regeneratsiya qilish sexi kam umumdorlik bilan ishlayotgan sexlardan biri bo'lib, asosiy kamchiliklar sexda ishlayotgan sirka kislotasini regeneratsiya qilish ekstraksion apparatlar bilan bog'liq. Buning asosiy sabablari quyidagilar: ekstraktorlarning yuqori qismidan chiqayotgan efirokislota bilan birga apparatdan juda ko'p miqdorda suv fazasi olib chiqilmoqda, bu esa mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Undan tashqari, olib chiqilishni me'yoriga keltirganda, ekstraktor unumdorligi loyihaviyning faqat 82-85 % ni tashkil etmoqda.

Sirka kislotasini ekstraktsiya qilish jarayoni setkali tarelkalar bilan jihozlangan umumiy balandligi 18,44 m bo'lgan ekstraktorlarda amalga oshiriladi. Apparatning diametri 1400 mm va balandligi 10,53 m bo'lgan ishchi qismida 40 dona setkali tarelkalar o'rnatilgan.

Farg'ona Politexnika Instituti «Texnologik mashinalar va jixozlar» kafedrasida olimlari tomonidan ushbu texnologik jarayonni amalga oshirishda barbotajli ekstraktorlardan foydalanish imkoniyatlari tavsiya qilinadi.

Barbotajli ekstraktorlarning asosiy afzalligi—bu ularning tuzilishining soddaligi va qo'zg'aluvchi mexanik qismlari yo'qligi tufayli, uning ishlatilishidagi ishonchliligidir. Birinchisi apparatni ishlab chiqarish korxonalarida sharoitida mexanik sexlarda tayyorlashga imkon bersa, ikkinchisi kimyoviy zaharli va xavfli ishlab chiqarish sharoitlarida asosiy shart bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, gabarit o'lchamlarining kichikligi ularni tayyorlashga ishlatiladigan kamyob zanglamas po'latlarni ko'p miqdorda tejashga imkon yaratadi.

Barbotajli ekstraktorlarni ko'p tonnali qarama-qarshi oqimli va to'xtamaydigan jarayonlarni amalga oshirishda berilayotgan gaz miqdorini oddiy o'zgartirish orqali sozlash mumkin.

Barbotajli ekstraktorlarning kichik gabarit o'lchamlari, ularning yuqori nisbiy unumdorligi ( $40-45 \text{ m}^3/\text{m}^2$  soat), inert gaz sifatida ishlatiladigan azot nisbiy sarfi kamligi ( $1 \text{ m}^3$  qayta ishlanayotgan suyuqliklarga  $0,4-1 \text{ m}^3$  azot), mahsulot sifatining texnologik reglamentga to'liq javob berishi, sirka kislotasini ekstraktsiya qilish unumdorligini oshirish imkonini beradi.

Muvaffaqiyatli tajribalar natijasida uskunaning yuqori texnologiyaligi, apparatni tezkor ravishda to'ldirish va bo'shatish imkoniyatlari, uskunaning texnologik rejimga tez chiqishi aniqlangan. Diametri 1,4 m va balandligi 24 m ni tashkil etadigan rotorli-diskali ekstraktorda  $25 \text{ m}^3$  suyuqliklar aralashmasi bo'lsa, va apparatni to'xtatish va yuvish sharoitida katta sig'implar kerak bo'lsa, barbotajli ekstraktor ichida esa o'sha unumdorlikda, lekin 1 m diametrdagi va 6 m balandlikda faqat  $4 \text{ m}^3$  suyuqliklar bo'ladi xolos. Natijada apparatni bo'shatishga juda kam vaqt

va uni yuvishga kam issiq suv talab qilinadi. Apparatlar odatda 6 kunda bir marta yiliga esa (360/6) 60 marta yuviladi.

Korxonaga barbatajli apparatlarni o`rnatish natijasidalyildagi yuvishga sarf bo`ladigan issiq suvdan iqtisod:

$$\Delta I_{\text{suv}} = (25\text{m}^3 - 4\text{m}^3) * 60 = 7260 \text{ m}^3 \text{ ni tashkil etadi.}$$

$$\text{Uning puldagi ifodasi esa: } 7260 \text{ m}^3 * 360 \text{ so`m} = 2613,6 \text{ ming so`m.}$$

Demak, barbatajli apparatlarni korxonaga o`rnatilsa, issiq suvdan 2613,6 ming so`m iqtisodga erishilar ekan.

Tajribalari asosida barbatajli apparatlarda suyuqliklarni aralashtirish uchun eski tarelkali apparatlarga nisbatan 15 marotaba kam energiya sarflanadi. Bu masalani chuqurroq ko`rib chiqish kerak, chunki ko`p hollarda aynan energiya sarfi ekstraktsiya jarayonini amalga oshirish uchun konkret apparatni tanlash uchun eng muhim omillar qatoriga kiradi.

Setkali tarelkali ekstraktsion apparatlar 12,55 KVt energiya sarf etsa, barbatajli apparatlarda bu ko`rsatkich 3 barobar kam, ya`ni 4,2 KVt ni tashkil etadi. Bundan esa tadbirni joriy etish natijasida korxonada erishiladigan iqtisodni hisoblab chiqamiz:

Setkali tarelkali ekstraktsion apparatlarda:

$$12,55 \text{ KVt} * 8200 \text{ soat} = 102910 \text{ KVt} * \text{soat}$$

Barbatajli apparatlarda:

$$4,2 \text{ KVt} * 8200 \text{ soat} = 34440 \text{ KVt} * \text{soat}$$

Bugungi kunda 1KVt soatning narxi korxonalar uchun 132 so`m 40 tiyin ekanligini bilgan holda, energiya bo`yicha iqtisodimiz:

$$\Delta = (102910 \text{ KVt} * \text{soat} - 34440 \text{ KVt} * \text{soat}) * 132,4 \text{ so`m} = 9065,428 \text{ ming so`mni tashkil etadi.}$$

Korxonaga yangi texnikani joriy etish orqali yana biz metall bo`yicha ham iqtisodiga ham erishishimiz mumkin. Setkali tarelkali ekstraktsion apparatlarda metall hajmi:

$$V_1 = n * \pi * d * H * \rho = 41 * 3,14 * 1,4 * 0,05 * 24 * 7,8 = 1687 \text{ tonna}$$

Barbatajli apparatlarda metal hajmi:

$$V_2 = n * \pi * d * H * \rho = 12 * 3,14 * 1 * 0,05 * 6 * 7,8 = 88,1 \text{ tonna}$$

Bu yerda:

n- tarelkalar soni

d-diametr

h-balandlik

Erishishimiz mumkin bo`lgan iqtisod:

$$\Delta V = V_1 - V_2 = 1\,687 - 88,1 = 1\,598,9 \text{ tonna}$$

Bugungi kunda jahon bozorida 1t metall 1 072,5 ming so`m ekanligini hisonga olsak, 1 714 820,3 ming so`m ( $1\,598,9 * 1\,072,5$ ) iqtisodga erishishimiz mumkin.

**3.2.1-jadval**

**“Farg`onaazot” ishlab chiqarish sexida moddiy resurslardan oqilona foydalanish tadbirlari va ularning iqtisodiy samaradorligi.**

Tadbirlar	Moddiy resurslarning tejalihi						
	Metall bo`yicha iqtisod		Elektr-energiyadan iqtisod		Suv resursidan iqtisod		Jami iqtisod
	Tonna	Ming so`mda	KVt*so at	Ming so`mda	M <sup>3</sup>	Ming so`mda	Ming so`mda
Sirka kislotasini regeneratsiya qilish sexida setkali tarelkali ekstraktorni barbatojli ekstraktorga almashtirish	1 598,9	1 714 820,3	68 470	9 065,428	7260	2 613,6	1 726 499,3

Umuman korxonaga ushbu apparatni joriy etish orqali korxonaga erishishi mumkin bo`ladigan iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlarini hisoblab chiqamiz:

Korxonada yillik mahsulot hajmi 220232 tonnaga teng bo`lib, quvvatdan foydalanish koeffitsiyenti 0,85 ni tashkil etadi. Ushbu mahsulotning puldagi ifodasi 168 477 480 ming so`m ( $220232 * 0,85 * 900$ ) ga teng.

Mahsulot tannarxi tovar mahsulotning 68 % qismini tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, mahsulot tannarxi:

$$168\,477\,480 * 0,68 = 114\,564\,686,4 \text{ ming so`m}$$

Tadbirdan oldingi foydani hisoblaymiz:

$$168\,477\,480 - 114\,564\,686,4 = 53\,912\,793,6 \text{ ming so`m}$$

Tadbirdan oldingi mahsulot rentabellikni hisoblaymiz:

$$R = \frac{F}{T} = \frac{53\,912\,793,6}{114\,564\,686,4} * 100 = 47\%$$

Tadbir natijasida tannarx:

$$168\,477\,480 * 0,68 - 1\,726\,499,3 = 112\,838\,187,1 \text{ ming so`mni tashkil etadi.}$$

Tadbirdan keyingi foyda summasini hisoblaymiz:

$$168\,477\,480 - 112\,838\,187,1 = 55\,639\,292,9 \text{ ming so`m}$$

Agar rentabellikning o`shirishini hisoblaydigan bo`lsak,

$$R = \frac{F}{T} = \frac{55\,639\,292,9}{112\,838\,187,1} * 100 = 49\%$$

Demak, yuqoridagi ma`lumotlardan ko`rinib turibdiki, korxonada setkali tarelkali ekstraktor o`rniga barbatojli ekstraktorni joriy etish natijasida sirka kislotasi ishlab chiqarish sexida moddiy resurslarning tejallishi 1 726 499,3 ming so`mni tashkil etadi, foyda summasi ham shu miqdorga oshadi. Natijada mahsulot rentabelligi darajasi 47 % dan 49 % gacha, ya`ni 2 % ga o`sadi.

### 3.2.2-jadval

#### Moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash tadbirlarining pirovard natijalarga ta`siri

T/r	Ko`rsatkichlar	Tadbirdan oldin	Tadbirdan keyingi	O`zgarishi
1.	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so`mda	168 477 480	168 477 480	-
2.	Mahsulotning tannarxi, ming so`mda	114 564 686,4	112 838 187,1	-1 726 499,
3.	Foyda summasi, ming so`mda	53 912 793,6	55 639 292,9	+ 1 726 499,3

4.	Mahsulotning rentabellik darajasi, %	47	49	+2
----	--------------------------------------	----	----	----

O'tkazilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijasida, «Farg'onaazot» OAJ uchun u yerda ishlatilayotgan setkali tarelkalar bilan jihozlangan ekstraktorlarni barbotajli ekstraktorlarga almashtirish texnik yechimi taklif qilingan. Ushbu ishni 2 bosqichda bajarish ko'zda tutilmoqda:

- birinchi bosqichda sirka kislotasini regeneratsiya qilish tsexida ishlayotgan barcha 12 ekstraktorlarning yuqori qismlarini barbotajli ekstraktor qismlariga almashtirish;

- ikkinchi bosqichda setkali tarelkalar bilan jihozlangan ekstraktorlarni to'liq barbotajli ekstraktorlarga almashtirish. Shunda, barbotajli ekstraktorlarning unumdorligi ancha yuqori bo'lganligi sababli, tsexdagi 12 eski apparat o'rniga faqat 8 ta barbotajli ekstraktor kerak bo'ladi (barcha 12 ekstraktorni ishlatish yo'li bilan esa, tsexning quvvatini 1,5 barobar oshirish mumkin)

Keyinchalik, sexning moral eskirgan setkali tarelkalar bilan jihozlangan barcha apparatlarni barbotajli ekstraktorlarga almashtirish rejalashtirilmoqda. Buning uchun ekstraktorlarning o'rta ishchi qismlari kerakli modernizatsiya qilinadi.

## **XULOSA**

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida mahsulot raqobatbardoshligini oshirish uchun uning tannarxini kamaytirish asosida narxini kamaytirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu o`rinda moddiy resurslardan samarali foydalanishning o`rni beqiyosdir. Shuning uchun ham respublikamiz hukumati, Prezidentimiz tomonidan sanoatda mahsulot tannarxini kamaytirish boyicha chora-tadbirlarga bag`ishlangan qator qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Ushbu yo`nalishda asosiy e`tiborni barcha resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga yo`naltirilgan, ya`ni, tannarxni kamayishiga kompleks ta`sir qiladigan tadbirlarga alohida e`tibor berilmoqda. Jumladan, korxonalar oldiga resurslar tejamkorligini kompleks ta`minlaydigan yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish asosiy vazifa etib qo`yildi.

Korxonalar va tashkilotlar o`z maqsadidan kelib chiqqan holda turli resurslardan foydalanadilar. Mamlakatimiz va viloyatimizdagi moddiy resurslar cheklangandir. Shu bilan birgalikda mamlakat va viloyat aholisining ehtiyojlari har tomonlama ortib bormoqda. Ortib borayotgan bu ehtiyojni to`laroq qondirib borish uchun har bir birlik resursdan ko`proq mahsulot olish va xizmatlar ko`rsatish lozim. Ushbu masala bugungi kunga kelib yanada dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Bitiruv malakaviy ishining 1-bobida mavzu nazariy jihatdan asoslanagan hamda amalga oshirilgan nazariy tahlillardan quyidagilar ma'lum bo'ldi:

1. Moddiy resurslar – bu ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha moddiy shakllardagi vositalar yig'indisidir;
2. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi, tannarxning pasayishi, foyda va rentabellikning oshishi, korxonani moddiy resurslar bilan belgilangan assortimenti va sifati bo'yicha ta'minlanishiga bog'liq bo'ladi;

3. Korxonada ishlab chiqarish dasturining bajarilishi va shu asosda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri korxonani moddiy resurslar bilan doimiy ta'minlashdan tashqari, ulardan to'liq, samarali, ratsional hamda tejamkorlik asosida foydalanish hisoblanadi.

4. Ishlab chiqarish jarayonining bir maromda borishida moddiy resurslar ta'minoti muddatiga amal qilinishi katta ahamiyatga ega, sababi ta'minot maromiyligida uzilishlar korxonada ish vaqtining yo'qotilishiga sabab bo'ladi, bu esa asosiy vositalar qaytimining kamayishiga va aylanma mablag'lar aylanishining uzayishiga sabab bo'ladi.

5. Moddiy resurslar tarkibida asosiy vositalar alohida ahamiyatga ega, sababi ular vositasida mehnat predmetlari va ishchi kuchlari birikuvi natijasida mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda asosiy vositalarning barcha turlarini kerakli nisbatda va tarkibda bo'lishini ta'minlash davr talabi hisoblanadi.

2-bobda "Farg'onaazot" OAJning moddiy resurslari holati tahlil qilingan. Tahlil natijasidan quyidagilar ma'lum bo'ldi:

1.«Farg'onaazot» OAJida 2013-yilda jami 305 569 002 ming so'mlik asosiy vositasi bo'lib, shundan, 63,5 % aktiv asosiy vositalar va qolgan 36,5 % passiv asosiy vositalar bo'lib hisoblanadi. 2013-yilda o'tgan yilga nisbatan bevosita ishlab chiqarishda ishtirok etadigan, ya'ni aktiv asosiy vositalar salmog'i 0,5 % ga pasayganligini, bunga mos ravishda passiv asosiy vositalar salmog'i esa 0,5 % ga ortganligini ko'rishimiz mumkin va buni salbiy holat sifatida baholaymiz.

2. 2013 yilda asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi o'tgan yilga nisbatan 2,4 foizga kamayib ketgan bo'lib, eskirish darajasi ham joriy yilda 2,4 foizni tashkil etgan.

Korxonada asosiy vositalarning texnik holati salbiy tomonga o'zgargan bo'lsada, asosiy vositalarning texnik holatini qoniqarli deb baholash mumkin.

3. 1 so'mlik asosiy vositalar hisobiga o'tgan yilgi 1,05 so'm o'rniga 1,29 so'mlik mahsulot yaratilgan, faol qismi hisobiga esa 1,08 so'm o'rniga 1,33 so'mlik mahsulot yaratilgan.

4. Asosiy vositalar samaradorligi darajasi o'tgan yili 1,16 so'm bo'lgan bo'lsa xisobot davrida u 1,37 so'mni tashkil qilgan.

5. Korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatida moddiy resurslarning ajralgan tarkibiga kiruvchi aylanma mablag'lar ham alohida ahamiyatga ega, sababi aylanma mablag'lar ishlab chiqarish va uning uzluksizligini ta'minlashning moddiy asosi hisoblanadi. Korxonaning aylanma mablag'lari aylanma ishlab chiqarish fondlaridan va muomala fondlaridan tashkil topadi hamda qoidaga ko'ra korxonaning hisob raqamida naqd pul ko'rinishida jamg'ariladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning aylanma mablag'larga yetarli tarzda ega bo'lishi ularning me'yorli faoliyat yuritishlarining garovi hisoblanadi.

6. Aylanma ishlab chiqarish fondlari – korxonada ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo'lib, bitta ishlab chiqarish jarayoni davomida sarflanadi hamda natural shaklni o'zgartirib, o'z qiymatini to'lig'icha tayyor mahsulot tannarxiga o'tkazadi, shu sababli aylanma ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonining majburiy elementi va ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismi hisoblanadi hamda u xom ashyo va materiallar zahirasi, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i va energetika resurslari, qadoqlash va o'rov materiallari, ehtiyot qismlari, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelajakdagi xarajatlardan tashkil topadi.

7. Korxonada barcha aktivlar yil boshidagi 580 100 197 ming so'mdan yil oxiriga 646 129 929 ming so'mga yoki 66 029 732 ming so'mga oshgan, bu 111,4 foiz demakdir. Bunday o'sish aylanma mablag'larida ham, pul mablag'larida ham, tovar moddiy zahiralarida ham sodir bo'lgan. Faqatgina, debitor mablag'larda yil boshiga nisbatan 10 548 075 ming so'mga kamayishi kuzatilgan.

8. Bitiruv malakaviy ish mavzusi bo'yicha olib borilgan tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki "Farg'onaazot" OAJ da aylanma mablag'larning aylanuvchanligi 2012- yili 576,1 kunningi tashkil etib, uning aylanish koeffitsiyenti bir yilda 0,62 martani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2013-yilda 466 kunningi va 0,77 martani tashkil etgan. Bu aylanuvchanlik o'tgan yilga nisbatan 110 kunga kamayib, aylanish koeffitsiyenti esa 0,15 martaga oshganligini ko'rsatadi.

Demak, korxonada aylanma mablag`larning aylanuvchanligi va aylanish koeffitsiyenti bir muncha oshgan.

BMI mavzusi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning eng muhim va asosiy omili bu – tejamkorlik rejimi hisoblanadi. Korxonada resurslarni tejash yonilg'i, energiya, xom ashyo va materiallarga bo'lgan o'sib boruvchi talabni qondirishning asosiy manbaiga aylanishi lozim.

- Materiallardan tejamkorlik asosida foydalanish zarur, chunki bu ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirishning va ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirishning garovi hisoblanadi.

- Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga sarflanuvchi xom ashyo, materiallar, yoqilg'i va energiya miqdori mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatmagan holda qanchalik kam bo'lsa, mahsulot shunchalik arzonlashadi hamda aylanma mablag`lar kamroq sarflanib, ulardan foydalanish samaradorligi yuqori bo'ladi.

- Keyingi yillarda asosiy vositalar bahosining muntazam oshib borishi va ularga qilinayotgan xarajatlar mahsulot tannarxining asosini tashkil etayotganligini hisobga olib, ulardan vaqt birligi davomida maksimal darajada foydalanishga erishish zarur. Bunga kun mobaynida uskunalarning bekor turib qolishini qisqartirish, ularning smenalik ish koeffitsientini oshirish, smena davomida va o'rtasida bo'sh turib qolishlarni yo'qotish hisobiga erishish mumkin.

- «Farg'onaazot» OAJ sirka kislotasini regeneratsiya qilish sexida ishlayotgan setkali tarelkalar bilan jihozlangan ekstraktorlar texnologik jarayonni unumdorlik va mahsulot sifati bo'yicha ta'minlay olmayapti. Shuning uchun sexda boshqa turdagi, masalan barbotajli ekstraktorlarni ishlatish kerakligi taklif qilingan.

**Moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash tadbirlarining pirovard  
natijalarga ta`siri**

T/r	Ko`rsatkichlar	Tadbirdan oldin	Tadbirdan keyingi	O`zgarishi
1.	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so`mda	168 477 480	168 477 480	-
2.	Mahsulotning tannarxi, ming so`mda	114 564 686,4	112 838 187,1	-1 726 499,
3.	Foyda summasi, ming so`mda	53 912 793,6	55 639 292,9	+ 1 726 499,3
4.	Mahsulotning rentabellik darajasi, %	47	49	+2

- «Farg'onaazot» OAJ sirka kislotasini regeneratsiya qilish sexi ekstraktorlarini barbotajli ekstraktorlarga almashtirish mavjud apparatlarni 2 bosqichda modernizatsiya qilish yo'li bilan amalga oshirish taklif etilgan. 1 bosqichda ekstraktorlarning yuqori qismlarini, so'ng ketma-ket apparatlarning asosiy ishchi qismlarini barbotaj usulda ishlaydigan ekstraktorlarga almashtirish tavsiya etilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.– T.:O'zbekiston, 2012.

2. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. 1996 yil 30 avgust.

3. O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risidagi qonun. 1991 yil 15 fevral

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Qarori “Mahsulotlar (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi Nizom.

5. Karimov I.A. Asosiy va

6. zifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - Toshkent: «O'zbekiston», 2010. – 80 b.

7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: «O'zbekiston», 2009 yil. 56 bet

8. *Karimov I.A.* Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. — T.: „Ma'naviyat“, 2009.

9. Prezident Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2013 yil .

10. Prezident Islom Karimovning 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2014 yil

11. O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risidagi qonun. 1991 yil 15 fevral - O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlari. T. “O'zbekiston” - 1992.

12. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. –T.: “Iqtisodiyot va huquqiy dunyosi”, 1999.

13. Abdukarimov I.T., Pardayev M.K., Isroilov B.I. Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili. Toshkent. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2003.

14. Ahmadjonov X.I., Rahimov M.Yu. Moliyaviy tahlil. –Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2004.
15. Ақромов Э.А. Анализ финансового состояния предприятия. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2000.
16. Алиматов Б.А., Садуллаев Х.М. Сравнение затрат энергии при пневматическом и механическом перемешивании несмешивающихся жидкостей // Гидравлика и пневматика. Россия, 2002. № 5. С.7-8.
17. Бернстаин А.А. Анализ финансовой отчетности. –М.: “Финансы и статистика”, 1999.
18. Egamberdiyev E., Qudratov G`. Korxonalar iqtisodiyoti.-Т.: “Toshkent”, 2004
19. Ergashev E . Iqtisodiy va moliyaviy tahlil.–Т.: “Moliya”, 2000
20. Григорьев Ю.А. Учёт, анализ и контроль внешне-экономической деятельности и валютных операций. –М.: “Паимс”, 1998.
21. Ионова А.Ф., Селезнева Н.Н. Финансовый анализ. –М.: “Перспектив”, 2006.
22. Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов. – М.:“Финансы и статистика”, 2001
23. Махмудов Е. “Korxonalar iqtisodiyoti” (o‘quv qo‘llanma) – Т.: TDIU. 2011.
24. Мельник М.В., Герасимова Е.Б. Анализ финансовой деятельности предприятия. –М.:“Фарум”, 2007.
25. Ortiqov A “Sanoat iqtisodiyoti” (darslik). – Т.:TDIU. 2011 yil.
26. Pardayev M.Yo., Abdulkarimov I.T. Iqtisodiy tahlil.–Т.: “Mehnat”, 2004.
27. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятий. И.П. “Финанс”, 2003.
28. Савицкая Г.В. Анализ производственно-финансовой деятельности сельскохозяйственных предприятий”. –М.: “Инфра-М”, 2003.
29. Савицкая Г.В. Теория анализа хозяйственной деятельности. –М.: “Инфра-М”, 2006.

30. Teshaboyeva U.A., Axunova M.X., Korxonah iqtisodiyoti.-T.:Farg`ona-2006
31. Титов В.И. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности. –М.: “Дашков и Ко”, 2005.
32. To`laxodjayeva M.M. Moliyaviy hisobotni va moliyaviy koeffitsiyentlarni tahlil qilish. –T.: 1996
33. Vahobov A.V., Ibragimov A.T. Moliyaviy tahlil. –T.: “SHarq”, 2002.
34. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. –T.: “SHarq”, 2005.
35. Войтоловский Н.В. Экономический анализ: Основы теории. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. –М.: “Высшее образование”, 2005.
36. Шагиясов Т.Ш. Теория экономического анализа. –T.: “ТФИ”, 2005.
37. “Farg`onaazot” OAJ moliyaviy va statistik hisobotlari 2012-2013 yillar.
38. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
39. [www.norma.uz](http://www.norma.uz) – axborot-xuquqiy qidiruv tizimi.
40. [www.internetindicators.com](http://www.internetindicators.com) – Iqtisodiy indikatorlar Internet veb-sayti
41. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)